

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 165 (954), 2023-yil 19-avgust, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



IQTISODIY TARAQQIYOTIMIZNING YANGI DAVRINI BOSHLAB BERADIGAN MUHIM TASHABBUSLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-avgust kuni Xalqaro kongress markazida tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.



Bunday uchrashuv ilk bor 2021-yil 20-avgustda tashkil etilgan edi. Davlatimiz rahbarining taklifi bilan bu an‘ana aylanib hamda mazkur sana mamlakatimizda “Tadbirkorlar kuni” etib belgilandi.

Tadbir avvalida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishbilamonlarni ushbu bayram bilan tabriklab, o‘zining chuqur hurmati va ezgu tilaklarini bildirdi.

— Har bir mamlakatda tadbirkorlar katta kuch-qudrat bo‘lib kelgan. O‘zbekistonimizda ham iqtisodiyotni rivojlantirish, ish o‘rinlari yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, mahallalarni obod etishga harakat qilaymiz. Bunga eng katta hissa qo‘shayotgan kim? Tadbirkorlar! Sizlar har biringiz qahramon-

siz, fidoyisiz. Biz sizlar bilan faxrlanamiz, — dedi davlatimiz rahbari.

Biznesga yaratilgan sharoitlar natijasida bu soha izchil rivojlanayotgani qayd etildi. O‘tgan bir yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingtaga, o‘rta tadbirkorlar soni 2 mingtaga, yirik korxonalar soni esa 400 taga ko‘paygan. Berilgan yengilliklardan foydalanib, bir yilda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshgan. Kiritilgan yillik xorijiy sarmoyalar hajmi esa ilk bor 10 milliard dollarga yetgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18-avgustdagi farmoniga muvofiq, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati va aholi farovonligini yuksaltirishda namuna ko‘rsatayotgan

44 nafar yurtdoshimiz davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Bayram tadbirida ularga ana shu unvon, orden va medallar topshirildi.

Shuningdek, joylarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17-avgustdagi farmoyishiga muvofiq, 126 nafar ilg‘or biznesmen “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

Muloqotda o‘tgan yillardagi uchrashuvlar natijalariga to‘xtalib o‘tiladi. 2021-yil bo‘lgan ochiq muloqot bo‘yicha 57 ta, o‘tgan yili esa 55 ta tashabbus ilgari surilgan edi. Ularning natijasida biznesni yuritishda ko‘plab yengilliklar bo‘ldi.

Davomi 3-betda

BMT INSTITUTLARI BILAN KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA‘KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-avgust kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining siyosiy masalalar va tinchlikni barpo etish masalalari bo‘yicha yordamchisi Miroslav Yench boshchiligidagi ushbu nufuzli global tuzilma delegatsiyasini qabul qildi.



Uzoq muddatli Barqaror rivojlanish maqsadlarini ro‘yobga chiqarish borasida BMT institut va markazlari bilan ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv avvalida yuqori darajali vakil Miroslav Yench davlatimiz rahbariga tashkilot Bosh kotibi Antoniu Guterrishning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. BMT tuzilmalari bundan buyon ham yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha ortga qaytmas islohotlar dasturini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga tayyorligi qayd etildi.

Ta‘kidlash joizki, keyingi yillarda mamlakatimizning BMT bilan o‘zaro manfaatli

hamkorligi misli ko‘rilmagan yuksak darajaga chiqdi. Birgalikda qariyb 140 ta dastur va loyihalar amalga oshirilmog‘da. O‘zbekiston tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Bosh assambleyasining 6 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi.

O‘zbekiston Inson huquqlari bo‘yicha kengash, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash komissiyasi, YUNESKoning madaniy meros bo‘yicha qo‘mitasi va ko‘plab boshqa tuzilmalarda faol ishtirok etmoqda.

Joriy yilning birgina ikkinchi yarmida mamlakatimizda BMT doirasidagi qator muhim xalqaro tadbirlar, shu jumladan, Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha FAO kon-

ferensiyasi hamda Jahon turizm tashkiloti bosh assambleyasining 25-yubiley sessiyasi o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Uchrashuvda barqaror taraqqiyot sohasidagi milliy vazifa va maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha amaliy hamkorlik istiqbolari ko‘rib chiqildi.

Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va bu jarayonda BMTning Preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi rolini kuchaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘ZA

TADBIRKORLIK RIVOJINI YANADA YUKSAK BOSQICHGA KO‘TARISH — USTUVOR VAZIFAMIZDIR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MAMLAKATIMIZ TADBIRKORLARI BILAN OCHIQ MULOQOT SHAKLIDA O‘TKAZILGAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Hurmatli biznes vakillari, ishbilamon tadbirkorlar, bugungi muloqot ishtirokchilari!

Bundan ikki yil oldin yaxshi bir tajriba — Tadbirkorlar kuni arafasida ochiq muloqot shaklida sizlar bilan uchrashib, to‘planib qolgan masalalarga birgalikda yechim topish amaliyotini yo‘lga qo‘ygan edik. Bugun ham ushbu an‘anani davom ettirib, sizlar bilan sog‘omon, xush kayfiyatda uchrashib turganimdan bag‘oyat xursandman.

Qadri yurtdoshlar!

Ochiq aytish kerak, so‘nggi 3-4 yilda xalqaro maydonda bo‘layotgan o‘zgarishlar dunyo iqtisodiyotiga, shu jumladan, milliy iqtisodiyotimizga ham katta ta‘sir o‘tkazmoqda.

Turli ziddiyatlar tufayli logistika va mahsulot yetkazib berish zanjirining uzilgani, hamkor mamlakatlar valyutasi qadrsizlangani, global miqyosda inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lib qolayotgani oqibatida moliyaviy resurslarning qiymatlashgani kabi omillar ta‘sirini tadbirkorlarimiz juda yaxshi biladilar.

Tan olish kerak, bundan buyon ham oson bo‘lmaydi. Yo‘l qo‘yilgan kamchiliklardan to‘g‘ri saboq chiqarib, faqat oldinga intilsak, bizning mehnatkash xalqimiz, ishbilamon tadbirkorlarimiz har qanday mashaqqatni albatta yengib o‘tadi, men bunga ishonaman.

Dastlabki ochiq muloqotimiz ham aynan jahondagi iqtisodiy tanglik va noaniqlik avjiga chiqqan davrda o‘tkazilgani bejiz emas. Sababi — bunday murakkab sharoitda muammolarni bevosita biznes vakillarining o‘zidan eshitib, ularga birgalikda yechim topish va bu orqali tezkorlik bilan qaror qabul qilish eng to‘g‘ri yo‘l ekanini hayotning o‘zi isbotlab berdi. Misol uchun, 2021-yilda bo‘lib o‘tgan ochiq muloqot natijalari bo‘yicha 57 ta, o‘tgan yili esa 55 ta tashabbus ilgari surilgan edi. Ularning natijasida biznesni yuritishda nima yengilliklar bo‘ldi? Tadbirkorlar hayotida qanday ijobiy o‘zgarishlarga erishildi? Umuman, birgalikdagi tashab-

buslarimiz natijasi mamlakatimiz iqtisodiyotiga qanday ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi?

Birinchidan, o‘tgan yilgi takliflar asosida biznes subyektlari mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga bo‘lindi va ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, tuman va shaharlar ham 5 ta toifaga ajratildi, 60 ta tumanga alohida soliq, kredit va moliyaviy yordam rejimlari joriy qilindi. Natijada bu tumanlardagi tadbirkorlar o‘tgan olti oyda qariyb 1 trillion so‘mlik imtiyozlardan foydalandi. Buning hisobidan 20 ta tuman-dagi tadbirkorlarning daromadi o‘tgan yilga nisbatan 1,5-2 barobar oshdi. Boshqacha aytganda, joriy yilning birinchi yarmida 7 trillion so‘mdan 11,5 trillion so‘mga ko‘paygan.

Qolgan 40 ta tuman rahbarlari ham tadbirkorlar bilan yaqindan ishlab, yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanishga qaratilgan edi, 5-toifaga kiradigan tuman qolmasdi.

Ikkinchidan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish muddati qisqartirilib, o‘tgan bir yil ichida — 2022-yil 1-avgustdan 2023-yil 1-avgustgacha — 6 mingta korxonaga 20 trillion so‘m qaytarib berildi. Ayniqsa, eksportdan valyuta tushumini kutmasdan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini intizomli eksportchi korxonalar qaytarib berish tartibi joriy qilingani natijasida 2 mingdan ziyod tadbirkorlarning hisobraqamiga 7 trillion so‘m kelib tushdi.

Eng muhimi, ushbu soliq stavkasini 12 foizga tushirganimiz hisobidan qo‘shilgan qiymat zanjiri ishtirokchilari soni 26 mingtaga ko‘payib, ularning faoliyati “soyadan” chiqdi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari soni 184 mingtaga yetdi.

Samarasiz soliq mexanizmlarini qo‘llash oqibatida vujudga kelgan soliq qarzdorligidan voz kechganimiz hisobidan biznes ixtiyorida 2 trillion so‘m qoldi.

Uchinchidan, kredit berishda aylanmadagi tovarlar, eksport shartnomalari, akkreditivlar va kelgusi tushum-

lardan ham garov ta‘minoti sifatida foydalanish tizimi yaratildi. Bu imkoniyatdan foydalanib tadbirkorlarimizga 1 milliard dollar kredit berildi.

Shuningdek, mikro-moliya tashkilotlarini ochish tartibini oson qildik. Buning natijasida mamlakatimizda banklarga muqobil kreditlar bozori paydo bo‘ldi. Natijada so‘nggi bir yilda bunday tashkilotlar soni 1,5 barobar, ular ajratgan kredit miqdori esa 3 barobar oshdi. Bir yilda nobank tashkilotlar 3 trillion so‘m kredit bergan.

Biz bo‘xona hududida qayta ishlash tizimini soddalashtirdik. Natijada ushbu bo‘xona rejimidan foydalanuvchi tadbirkorlar soni 2 barobar ko‘paydi. Misol uchun, bir yil ichida ushbu imkoniyat orqali 455 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Shu tariqa 110 million dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratildi.

To‘rtinchidan, ilgari yangi tadbirkorlar uchun “kirish qiyin bo‘lgan” 119 ta faoliyat bo‘yicha litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi yoki xabardor qilish shakliga o‘tkazildi. Mamlakatimiz hududida birgina yuklarni avtomobil tashish faoliyati bo‘yicha litsenziyalarni bekor qilish hisobidan yuk tashish hajmi 1,5 barobar oshdi.

Beshinchidan, tadbirkorlar o‘zlarini aytsin, to‘g‘ri ishlaydigan soliq to‘lovchilar faoliyatida tekshirishlar keskin qisqargani sezildimi yoki yo‘qmi?

E‘tibor bering, 2023-yilning olti oyida tekshirishlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 40 foiz yoki 104 mingtadan 64 mingtaga kamaygan. Ya‘ni tadbirkorlarimiz to‘g‘ri ishlash “soyada” ishlashdan ko‘ra afzal ekanini tushunib yetmoqda. Shuning uchun ham soliq hisobotlarini topshirish va kameral tekshirish natijalari bo‘yicha moliyaviy jarimalar qo‘llashni bekor qildik.

Umuman, o‘tgan bir yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingtaga ko‘payib, 490 mingga, o‘rta tadbirkorlar soni 2 mingtaga oshib, 10 mingga yetdi. Yirik korxonalar soni esa bir yilda 400 taga ko‘payib, 1,5 mingta bo‘ldi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN VENGRIYAGA BORADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan joriy yil 19-20-avgust kunlari amaliy tashrif bilan Budapesht shahrida bo‘ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, davlatimiz rahbari Vengriya Bosh vaziri bilan muzokara o‘tkazadi, unda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi amaliy hamkorlikning dastur va loyihalarini ilgari surish masalalari ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Prezidenti faxriy mehmon sifatida Vengriya davlat bayrami — av-

liyo Ishtvan kuniga bag‘ishlangan tadbirlarda ishtirok etadi hamda Budapeshtda o‘tayotgan yengil atletika bo‘yicha jahon chempionatining erkaklar o‘rtasidagi yugurish musobaqalari finaliga tashrif buyuradi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI TADBIRKORLAR KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, respublikamizning iqtisodiy qudrati va eksport salohiyatini oshirishga katta hissa qo‘shib kelayotgani, o‘zining tashabbuskorligi, bilim va tajribasini namoyon etib, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, import o‘rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatishni yanada kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi farovonligini yuksaltirish yo‘lida ibrat va namuna ko‘rsatayotgani, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi” faxriy unvoni bilan

Sultonov Azamat Akramovich — Buxoro viloyati “Buxoro agroklaster” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori

Davomi 3-betda



TADBIRKORLIK RIVOJINI YANADA YUKSAK BOSQICHA KO‘TARISH – USTUVOR VAZIFAMIZDIR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING

MAMLAKATIMIZ TADBIRKORLARI BILAN MULOQOT SHAKLIDA O‘TKAZILGAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Berilgan yengilliklardan foydalanib, bir yilda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshdi. Kiritilgan yillik xorijiy sarmoyalarni hajmi esa ilk bor 10 milliard dollarga yetdi. Bu — 2017-yilga nisbatan 3 barobar ko‘p demakdir.

Bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotlardan keyin so‘nggi ikki yilda korxonalarimiz tomonidan 25 milliard dollarlik mahsulotlar eksport qilindi va avval import qilingan 10 milliard dollarlik mahsulotni o‘zimizda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Hurmatli biznes vakillari! Yuqorida qayd etilgan barcha natijalarimiz tashabbuskor, ishbiarmon va fidoyi tadbirkorlarimizning mehnati bilan bo‘lmoqda va biz buni yuksak qadrlaymiz.

Shu munosabat bilan ushbu yutuqlarga erishishda katta hissa qo‘shib kelayotgan, yangi g‘oyalar tashabbuskori bo‘lgan kichik tadbirkorlarimizga, iqtisodiyotimiz lokomotivi-ga aylangan o‘rta biznes vakillariga, minglab ish o‘rinlari yaratib, odamlarimizni daromadli qilyotgan yirik korxonalar rahbarlariga, bozorlarimizga baraka olib kirayotgan klaster, fermer va dehqonlarimizga o‘zimizning samimiy minnatdorchiligini bildiraman.

Mana bugun ham bir guruh tadbirkorlarimizning mamlakatimiz taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini yuksak e‘tirof etib, ularning 44 nafarini orden va medallar bilan, 126 nafarini esa "Faol tadbirkor" ko‘krak nishoni bilan taqdirlaydi.

Fursatdan foydalanib, ushbu e‘tirofga sazovor bo‘lgan tadbirkorlarimizga yana bir bor chuqur tashakkur bildiraman va sizlarning safaringiz kuni sayin kengayib borishiga astoydil ishonaman!

Aziz vatandoshlar! Bir narsani tan olish kerakki, yetti yillik sa‘y-harakatlarimiz natijasida **Yangi O‘zbekistonda yangi tadbirkorlar yangi shakllandi.**

Xabarimiz bor, bu yil — siyosiy tadbirlarga boy yil bo‘ldi. Boshlagan islohotlarimiz ortga qaytmas tus olishini kafolatlash maqsadida xalqimiz yangilangan Konstitutsiyani qabul qildi.

Eng muhimi, Bosh qomusimizda ilk bor qulay investitsiya va ishbiarmonlik muhitini ta‘minlash, mulk daxlsizligi, bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratish, sharoitlarni yanada kengaytirish bo‘yicha hali oldimizda qiladigan ishlarimiz ko‘p.

Yaratganning bizga marhamat qilgan har bir kuni, barchamiz uchun yangi imkoniyat. Gap nima haqida ekanini tadbirkorlarimiz hammadan ham yaxshi tushunadilar. Bunday unumli foydalanib, imkoniyatni natijaga aylantirish uchun barchamiz tinimsiz izlanishimiz, yangi g‘oya va tashabbuslardan qo‘rqmasdan, yanada ko‘proq mehnat qilishimiz kerak.

Hurmatli tadbirkorlar! Ushbu muloqotimiz arafasida tadbirkorlarimizdan 6 mingga yaqin murojaat kelib tushdi. Ular ko‘targan asosiy masalalar — kredit va moliyaviy yordamni kengaytirish (jami murojaatlarning 26 foizi), biznesni joy va infratuzilma bilan ta‘minlash (21 foiz), soliq tizimini soddalashtirish (10 foiz), tekshirishlar va ortiqcha byurokreatsiyani keskin qisqartirish (8 foiz) bilan bog‘liq.

Ushbu raqamlarni ko‘rib, bilasizlarmi, birinchi bergan savolim nima bo‘ldi? Nima uchun murojaatlar soni o‘tgan yilgandan kam? Lekin taklif va tashabbuslar bilan birma-bir tanishib, bir narsaga amin bo‘ldim.

Oldingi ochiq muloqotlarga tayoorgarlik davomida ko‘tarilgan masalalarning 80 foizi individual xususiyatga ega bo‘lib, ko‘plari joyda hal qilingan edi.

Bu safar 70 foiz tadbirkorlarimiz tizimli muammolarni yechimlari bilan taklif qilishmoqda. Tadbirkorlarimiz faqat o‘ziga emas, balki butun sohaga nar keltiradigan masalalarni ko‘tarayotgani albatta qiyosarli hol.

Ochiq muloqot natijalari bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlarda bularning barchasi inobatga olinadi.

Endi sizlardan kelib tushgan takliflar asosida eng muhim yangi tashabbuslarga to‘xtalib o‘taman.

Birinchi yo‘nalish — kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar

Ma‘lumki, kichik biznes — bu mahallaga, tumanga shijoat olib kiradigan, odamlarimizga yangi odat beradigan katta kuchdir.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko‘plab davlatlarda ish o‘rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o‘rta biznesdan boshlangan.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag‘ yo‘naltiryapmiz. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo‘lib, minglab doimiy ish o‘rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo‘llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to‘liq shakllanib ulgurmaydi, desak, adolatdan bo‘ladi.

Biz yil boshida kichik biznes toifasiga kimlar kirishini aniq belgilab oldik. Endi kichik tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etamiz. Bunda ushbu soha vakillarini tadbirkorlikka o‘qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo‘yicha yaxlit ekotizim yaratiladi.

Buning uchun, **eng avvalo**, "Qishloq qurilish banki"ni "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantiramiz. Ushbu yangi bankning faoliyatini ham, ishlash uslubini va moliyalashtirish mexanizmlari ham yangicha bo‘ladi. Jumladan, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida tajriba o‘rttirgan 500 mingdan ziyod mikro-biznes vakillari bor. Endi 9 ming 400 ta mahalladagi hokim yordamchilari o‘z hududida mikrodan kichik biznesga o‘smoqchi bo‘lgan 3-4 nafar tadbirkorni har oyda biznes markazlariga jalb qiladi.

Markazlar esa tashabbuskorlarning biznes loyihalari ishlab chiqishga ko‘maklashadi, o‘z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarni o‘qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, hududlardagi kichik biznes markazlarida o‘qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlar asosida moliyalashtirish yo‘lga qo‘yiladi.

Bunda kichik biznes loyahasining 10 foiziga tadbirkor investitsiya kirirsa, 45 foiziga "Biznesni rivojlantirish banki"ning o‘zi, qolgan 45 foizi uchun davlat ko‘magida resurs yo‘naltiriladi.

Ushbu maqsadlar uchun bir "tadbirkorlik yili"da banking o‘zi 500 million dollar olib keladi, davlat yana shuncha miqdorda mablag‘ ajratadi. Kreditlar tadbirkorlarga 5-7 yil muddatga imtiyozli shartlar asosida beriladi. Ushbu mablag‘larning 150 million dollari bo‘yicha kredit liniyalari 1-oktyabrden ochiladi.

O‘z biznesini yo‘lga qo‘ya olgan, "kredit va soliq tarixi" toza bo‘lgan tadbirkorlarga faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish uchun kredit olishda garov talabi 50 foizga kamaytiriladi.

Loyihani amalga oshirishda qo‘shimcha resursga ehtiyoji bor korxonalar mavjud kreditga qo‘shimcha mablag‘ ajratishga ruxsat beriladi. Buning uchun yiliga qo‘shimcha 1 trillion so‘m ajratiladi. Shuningdek, loyiha doirasida olib kiriladigan asbob-uskunani sug‘urtalash, xomashyo va materiallarni sertifikatlash xarajatlari markazlar tomonidan qoplab beriladi.

Umuman, dasturda ishtirok etayotgan kichik biznes korxonalari faoliyatini uch yilgacha tekshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Uchinchidan, Kichik biznes markazlari ko‘magida loyiha tashabbuskori va yirik davlat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalari o‘rnatiladi. Bunda yangi korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish va mahsulotni realizatsiya qilishga Markazlar yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu korxonalar davlat xaridlarini tizimida o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlarni 2 yil davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma bilan sotishga ruxsat beriladi.

To‘rtinchidan, Kichik biznes markazlarini boshqarishga xususiy sheriklar jalb qilinadi. Ushbu tadbirkorlarga "Biznesni rivojlantirish banki"ga hissador bo‘lib kirish huquqi beriladi.

Shuningdek, markazlarga xorijiy mutaxassislarni ham olib kelamiz. Bunda biznes-konsultant, muhandis-texnolog, dizayner, mehmonxonaga boshqaruvchisi, marketolog, agronom, veterinar, urug‘shunos kabi xorijdan jalb qilingan mutaxassislarga O‘zbekistonda ishlash uchun ruxsatnoma berish muddati hozirgi 1 yildan 3 yilga uzaytiriladi. Ishlashga ruxsatnoma to‘lovi esa hozirgi 10 million so‘mdan 330 ming so‘mga tushiriladi. Ularga huquqiy mehnat organidan ishga jalb etish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa olish talab qilinmaydi.

Beshinchidan, yangi tizimni joriy etish bo‘yicha alohida qonun ham qabul qilamiz. Bunda markaz bilan hamkorlikda kichik biznes loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liq barcha jarayonlar soddalashtirgan tartibda belgilanadi.

Albatta, bank ham, markaz ham yangi loyiha daromad keltirib, tadbirkor faoliyati rivojlanishidan manfaatdor bo‘lishi zarur. Shuning uchun yangi kichik biznes loyihasi ishga tushgach, ikki yil davomida ularning tushadigan barcha soliqlar "Biznesni rivojlantirish banki"ning aylanma mablag‘i uchun o‘tkazib beriladi. Ya‘ni tadbirkor qancha ko‘p daromad topishidan bank manfaatdor bo‘ladigan tizim yaratiladi.

Eng asosiysi, ushbu dasturda istalgan davlat banki va xususiy banklar ishtirok etishi, o‘zlari ham resurs jalb qilishi mumkin bo‘ladi. Banklarning dastur doirasida olgan foydasi soliq bazasidan chegirib tashlanadi. Shunda tadbirkorlarda ham, banklarda ham manfaat va raqobat bo‘ladi. Buning uchun Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlardan yana 500 million dollar jalb qilamiz.

Maqsadimiz — bir yil ichida kamida 150 mingta kichik biznes subyektni "oyoqqa turg‘izish", kamida 25 mingtasini o‘rta korxonalar aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o‘rni yaratishdan iborat.

Ikkinchi yo‘nalish — o‘rta biznes barqaror iqtisodiy o‘sish garovi

Hurmatli biznes vakillari! Iqtisodiyotimizning yangi texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan, sifati hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaradigan muhim bo‘g‘ini bu — o‘rta biznes.

Lekin hozir o‘rta biznes uchun sharoitlar yetarli emas, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Faqatgina Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tijorat kreditlariga kafallik yoki kompensatsiya berib kelyapti. U ham barchaga emas.

Shu bois, biz kichik biznesdan o‘rta biznesga o‘tish istagida bo‘lgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham yangicha yondashuvlarni yo‘lga qo‘yamiz. Bu borada biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mavjud jamg‘armalarning faoliyatini ham, ishlash usuli ham tubdan o‘zgaradi.

Endi Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi (J.Qo‘chqorov) xizmat ko‘rsatish bo‘yicha, "yashil" va energiya samarador loyihalarga moliyaviy yordam ko‘rsatishga, Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi (J.Xodjayev) esa sanoat loyihalari uchun mas‘ul bo‘ladi. Biz jamg‘armalarni boshqarishga malakali xorijiy menejerlarni olib kelamiz. Ushbu jamg‘armalar byudjet mablag‘lari bilan cheklanib qolmaydi, ularga mustaqil investitsiya jalb qilish vakolati beriladi. Bu orqali kelgusi bir yilda ushbu jamg‘armalar o‘rta biznes uchun qo‘shimcha 1 milliard dollar mablag‘ olib keladi.

Birinchidan, biz "drayver" tarmoqlarda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish uchun Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etib, dastlabki bosqichda unga 200 million dollar ajratdik.

Jamg‘armadan 1-sentabrden boshlab, yangi loyihalarni moliyalashtirish uchun xorijiy valyutada 5 foiz, milliy valyutada 10 foiz stavkada 10 yil muddatga kreditlar ajratiladi, sanoat korxonalariga 1 yil muddatgacha xorijiy valyutada 4 foiz, milliy valyutada 10 foiz stavkada aylanma mablag‘ taqdim etiladi.

Bunda olib kelinadigan asbob-uskuna uchun 15 foizlik avans to‘lovlari ham Jamg‘arma tomonidan kredit qilib beriladi, marketing, loyihalashtirish, xorijiy mutaxassis jalb qilish xarajatlarning 20 ming dollargacha qismiga kompensatsiya to‘lanadi.

Ikkinchidan, sanoat ipotekasi tizimi yo‘lga qo‘yilib, tadbirkorlarga "taylor biznes" shaklida ishlab chiqarish maydonlari qurib beriladi. Jumladan, har bir viloyatda kamida 3 tadan yangi sanoat zonasi tashkil etiladi.

Bundan tashqari, sanoat zonalarida ishlab chiqarish obyekti ishga tushirilib, investitsiya majburiyatlari bajarilganidan so‘ng yer maydonlarini xususiy lashtirishga ruxsat beriladi.

Uchinchidan, oxirgi yillarda katta-katta investitsiya dasturlarini amalga oshirish hisobidan mamlakatimizda 20 mingga yaqin zamonaviy uskunalar ega korxonalar barpo etildi. Bularning yarmi — o‘rta korxonalaridir.

Bu korxonalar faoliyatini kengaytirish uchun ularga yangi investor va brendlarni jalb qilishga ko‘maklashish zarur. Shu bois, endi agar korxonalar xorijiy brend va investor bilan kelishuviga erishsa, unga yangi tashkil qilingan Sanoat jamg‘armasi 25 foizgacha bo‘lgan kapitaliga sarmoya bilan kirishi mumkin bo‘ladi.

To‘rtinchidan, Tadbirkorlik jamg‘armasi iqtisodiyotimizning yana bir drayveri bo‘lgan xizmatlar sohasiga mas‘ul bo‘ladi.

Jamg‘armaga salohiyatli o‘rta biznes korxonalariga hissador bo‘lib kirish vakolati beriladi. Buning uchun joriy yilda Jamg‘armaga qo‘shimcha 25 million dollar, kelgusi yilda yana 100 million dollar ajratiladi. Shu bilan birga, Jamg‘arma tomonidan o‘rta biznes uchun xorijiy valyutadagi kredit-

larga ham kafillik beriladi. Jamg‘arma tuziriz, savdo va servis sohalarida "xizmatlar ipotekasi" tizimini joriy qiladi.

Endi mehmonxonaga, restoran, savdo kompleksi, avtoturargoh, yoqilg‘i shoxobchasi, kemping kabi obyektlarning tayyor loyihalari tadbirkorlarga taklif etiladi.

Shuningdek, Jamg‘arma tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatish obyekti uchun yer sotib olish, bino-inshootlar qurish va aylanma mablag‘i uchun ham resurs ajratadi. Shu bilan birga, korxonalarda yashil texnologiyalarni joriy qilish uchun xorijiy hamkorklarimizdan 100 million dollar jalb qilindi.

Ana shu ikkita yangi tizim 1-oktabrdan to‘laqonli ishga tushiriladi va kelgusi bir yilda o‘rta biznesda sanoat sohasida 2 mingta va xizmatlar bo‘yicha 10 mingta yangi loyihalar moliyalashtiriladi.

Agar birgalikda astoydil ishlasak, ushbu yangi imkoniyatlar hisobidan qo‘shimcha 1 milliard dollarlik xizmatlar, 5 milliard dollarlik yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, 350 mingta yangi ish o‘rnini bemalol tashkil qila olamiz.

Uchinchi yo‘nalish — yangi bozorlarga sifatlari va raqobatbardosh mahsulot bilan kirish

Aziz do‘stlar! Shubhasiz, so‘nggi yillarda bunga e‘tibor qarab, ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar oshirganimiz iqtisodiyotimizda yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minladi.

Bir narsani to‘g‘ri tushunish kerak. Biz ayrim mamlakatlari kabi neft-gaz resurslarini sotish hisobidan yuqori iqtisodiy o‘sinhini ta‘minlay olmaymiz.

Bizning nefrimiz ham, gazimiz ham — Siz kabi tashabbuskor va ishbiarmon tadbirkorlar xomashyodan yaratayotgan yuqori qiymatli va sifatlil mahsulotlardir.

Shu bois, mahsulotlarimiz — tashqi bozorlarga sifatlil, talabgorligi yuqori va raqobatbardosh bo‘lishi kerak. Ana shunday natijaga erishish uchun ishlab chiqarishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqib, keskin o‘sinh qilishimiz zarur.

O‘tgan yilgi ochiq muloqotda "**Yangi O‘zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti**" dasturini boshlagan edik. Dastur doirasida 100 ta yetakchi eksportchi korxonaga tanlab olinib, ularga kredit, soliq, bojxona bo‘yicha alohida rejim joriy qilindi. Natijada joriy yilda bu korxonalar eksporti 1,5 barobar ko‘payib, 1,2 milliard dollarga yetkazildi.

Umuman, eksportni qo‘llab-quvvatlash hisobidan so‘nggi to‘rt yilda bunday korxonalar soni 4,5 mingtadan 7,2 mingtaga ko‘paydi, chetga sotilayotgan mahsulot turlari 1,5 mingtadan 3 mingtaga oshib, geografiyasi 139 ta mamlakatdan 164 taga kengaydi, tashqi bozorlarga tayyor mahsulot sotish hajmi 2 barobar, barcha tovarlar eksportidagi ulushi esa 50 foizdan 65 foizga oshdi.

Shu bilan birga, xalqaro maydondagi vaziyat hisobiga logistika xarajatlari 3-4-marta oshib ketdi. Shu bois, biz eksportchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashni izchil davom ettiramiz. Ular uchun moliyaviy imkoniyatlarni yanada kengaytirishimiz zarur.

Bunda logistika xarajatlarni kompensatsiya qilishga qo‘shimcha 100 million dollar yo‘naltiramiz. Shuningdek, mahsulotlarni xorijda sertifikatlash, xalqaro standartlarni joriy qilish va bu borada mutaxassis tayyorlashga yana 25 million dollar ajratiladi.

Biz "**Yangi O‘zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti**" dasturini joriy yilda ham davom ettiramiz va dastur bilan qamrab olinadigan korxonalar sonini 500 taga yetkazamiz. Ular uchun dasturdagi barcha imtiyozlar saqlab qolinadi.

Eksportni kengaytirish bo‘yicha yana bir katta imkoniyat — bu nufuzli xorijiy brendlarni mamlakatimizga jalb qilish hisoblanadi. Misol uchun, yillik bozori 100 milliard dollardan oshadigan dunyoning eng mashhur 50 ta brendi korxonalarimiz bilan ishlashga katta qiziqish bildirmoqda.

Topshirg‘imga ko‘ra, ishchi guruhi Ispaniya, Germaniya, Polsha, Turkiyaning yirik brendlari bilan muzokaralar o‘tkazib keldi. Ular mahalliy korxonalarimizga 3 milliard dollarlik buyurtma berishga hozirimga o‘zida tayyor. Bunday imkoniyat bizda hech qachon bo‘lmagan. Buning uchun ular so‘rayotgan 3 ta eng katta masalani hal qil beramiz. Bu borada **birinchi navbatda**, ishlab chiqarishga xalqaro standartlar, ekologiya va sertifikatlash talablarini joriy qilamiz. Buning uchun mahalliy korxonalarimiz mutaxassislarini ularning talabi asosida o‘qitamiz.

Ikkinchidan, mahalliy korxonalaridagi ishchilarga munosib mehnat sharoitlarini yaratib beramiz.

Uchinchidan, brendlarning mahsulotlarini olib kirish va eksport qilish uchun qulay investitsiya dasturlarini amalga oshirish hisobidan mamlakatimizda 20 mingga yaqin zamonaviy uskunalar ega korxonalar barpo etildi. Bularning yarmi — o‘rta korxonalaridir.

AQSHning "Nayk" brendini jalb qilgan Andijondagi "Sino interneysnl" korxonasi rahbari Fan Ronxuanga bugun birinchi bo‘lib ushbu grantni berishni taklif qilaman.

O‘laymanki, xalqaro bozorga chiqmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarimiz bu takliflarni qo‘llab-quvvatlaydi.

To‘rtinchi yo‘nalish — yuqori daromadli korxonalarni ko‘paytirish

Hurmatli tadbir ishtirokchilari! Bugungi uchrashuvda yangi bir tashabbusni ilgari surmoqchiman.

Xalqaro konsultantlarni jalb qilgan holda, elektrotexnika, to‘qimachilik, charm-poyabzal, zargarlik, qurilish materiallari, mebel-sozlik, polimer, kimyo va oziq-ovqat sanoati bo‘yicha 140 ta tayyor loyiha ishlab chiqildi.

Bugun sizlarga ushbu 140 ta ilg‘or sanoat korxonasi loyihalari taqdimot qilindi. Ushbu loyihalarning jami qiymati 10 milliard dollarga teng bo‘lib, ularda 60 mingta ish o‘rnini yaratish, yiliga 5 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish maqsada 2,5 milliard dollarlik eksport qilish ko‘zda tutilgan.

Mazkur 140 ta loyiha elektron platformaga qo‘yilib, tadbirkorlarga ochiq-oshkora shartlar asosida taklif qilinmoqda. Bu yerda o‘tirgan tadbirkorlar orasida dasturda ishtirok etishga kim qiziqish bildirsa, hozirimga o‘zida ular bilan shartnoma tuzishga tayyormiz. Ularga joyi ham, mablag‘i ham, infratuzilmasi ham hozirimga o‘zida hal qilib beriladi.

Dasturga kirgan korxonalariga Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan 10 yil muddatga past foizli kreditlar ajratiladi.

Kelgusi yil ochiq muloqotda ushbu loyihalarni birgalikda albatta ishga tushiramiz.

Beshinchi yo‘nalish — sodda soliq ma‘murchiligi va byurokratiyasiz qulay muhit

Qadrlil do‘stlar! Mamlakatimizda **tadbirkorlar qancha ko‘p bo‘lsa, ular yanada ko‘proq daromad ko‘rsa, davlatimiz ham shuncha boy bo‘ladi**. Sizlardek shijoatli, ishbiarmon, tashabbuskor va fidoyi tadbirkorlarimiz safi bir necha karra kengayishidan barchamiz birdek manfaatdormiz.

Shu bois, biz tadbirkorlarga soliq yukini ko‘paytirish emas, balki ularni qo‘llab-quvvatlash orqali soliq bazasini kengaytirish hisobidan byudjetga tushumlarni oshirish yo‘lidani boryapmiz.

O‘tkazilgan so‘rovlarda 62 foiz tadbirkorlarimiz soliq sohasidagi islohotlarimizni ijobiy baholagan. Lekin biznes vakillari soliq tizimidan, soliqchilar faoliyatidan qanchalik rozi?

Murakkab soliq ma‘murchiligi, biznesga ortiqcha aralashish va tizimdagi korrupsiya holatlarining barchasidan xabarim bor. Endi bu tizimni tubdan isloh qilib, soliq idoralari xodimlari yondashuvlarini butunlay o‘zgartiramiz. Soliq ma‘murchiligi ham soddalashtiradi.

Birinchidan, hozirgi tadbirkorlarni xavf guruhiga kiritish tizimi yopiq bo‘lib, intizomli soliq to‘lovchilar ham qaysidir hamkori qachonlardir xato qilgan bo‘lsa, uning uchun ham javob bermoqda.

O‘tkazilgan so‘rovlarda qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarning 70 foizi ushbu soliqliq qaytarishda soliq uzilishi ko‘effitsiyentini qo‘llash, ya‘ni "tax-gap" tizimi adolatsiz ekanini bildirgan. Soliq tizimidagi korrupsiya bilan bog‘liq shikoyatlar haddan tashqari ko‘payib ketgani ham aynan "tax-gap" bilan bog‘liq.

Endi, 1-oktabrdan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarishda soliq uzilishi ko‘effitsiyentini qo‘llash amaliyotini, ya‘ni "tax-gap"ni bekor qilamiz.

Shu bilan birga, Savdo-sanoat palatasi, Biznes-ombudsman soha vakillari bilan birga tadbirkorlarning ochiq-oshkora reytingini joriy qiladi. Bunda kelgusi yil 1-yanvardan boshlab, reytingi yuqori korxonalar barcha turdagi soliq tekshiruvlaridan ozod qilinadi, ularga qo‘shilgan qiymat solig‘ining ortiqcha qismi bir kunda qaytarib beriladi, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi guvohnomasini vaqtinchalik to‘xtatib turish amaliyoti bekor qilinadi.

Ikkinchidan, kameral nazorat "soliqchining qurol"i emas, balki tadbirkorga xatosini ko‘rsatib, uni to‘g‘rilashga yordam beradigan jarayon bo‘lishi kerak.

Hozirda esa kameral nazorat to‘laqonli soliq tekshiruviga aylanib ketgani sir emas va bu korrupsiyaga ham yo‘l ochib beryapti. Endi kameral nazoratda tadbirkorning hujjat talab qilish yoki uni idoraga chaqirishni qat‘iyan taqiqlaymiz.

Umuman, soliqchilar o‘z dunyoqarashini o‘zgartirib, mahalladagi katta imkoniyatlarni ishga solishi, faqat va faqat tadbirkorlarga sharoit qilib berishlari lozim bo‘ladi. Shuningdek, alohida ochiq-oshkora platforma yaratib, soliqchilar ko‘rsatgan xizmatlar sifatiga tadbirkorlarning o‘zi baho beradigan tizimni yo‘lga qo‘ysak, nima deysizlar?

Uchinchidan, hozirgi vaqtda soliqqa oid bitta huquqbuzarlik uchun tadbirkor sifatida moliyaviy jarima, jismoniy shaxs sifatida ma‘muriy jarima qo‘llanmoqda.

Endi bunday amaliyot bekor qilinadi. Umuman, tadbirkorlarga qo‘llanayotgan jarimalar ular faoliyatining to‘xtab qolishiga sabab bo‘lmasligi zarur. Shu nuqtayi nazaridan, uch oyda barcha moliyaviy sanksiyalar qayta ko‘rib chiqilib, adolatli me‘yorlar belgilanadi.

To‘rtinchidan, tadbirkorning soliq idoralari bilan bo‘ladigan barcha nizolarini ma‘muriy sud vakolatiga o‘tk



IQTISODIY TARAQQIYOTIMIZNING YANGI DAVRINI BOSHLAB BERADIGAN MUHIM TASHABBUSLAR

Boshlanishi 1-betda

Misol uchun, o‘tgan yilgi takliflar asosida biznes subyektlari mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga bo‘linib, ular bilan alohida ishlash yo‘lga qo‘yildi. Xuddi shunday, tuman va shaharlar ham 5 ta toifaga ajratildi, 60 ta tumanga alohida soliq, kredit va moliyaviy yordam rejimlari joriy qilindi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish muddati qisqartirilib, o‘tgan bir yil ichida 6 mingta korxonaga 20 trillion so‘m qaytarib berilgan. Eng muhimi, ushbu soliq stavkasi 12 foizga tushirilgan hisobiga, qo‘shilgan qiymat sanjiri ishtirokchilari soni 26 mingtaga ko‘payib, faoliyati “soyadani” chiqqan.

Kredit berishda aylanmadagi tovarlar, eksport shartnomalari, akkreditivlar va kelgusi tushumlardan ham garov ta‘minoti sifatida foydalanish tizimi yaratildi. Bu imkoniyat orqali tadbirkorlarga 1 milliard dollar kreditlar berilgan.

Bojxona hududida qayta ishlash tizimi soddalashtirildi. Natijada ushbu bojxona rejimidan foydalanuvchi tadbirkorlar soni 2 barabarga ko‘paydi. Bir yil ichida ushbu imkoniyat orqali 455 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

Ilgari yangi tadbirkorlar uchun “kirish qiyin bo‘lgan” 119 ta faoliyat bo‘yicha litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi yoki xabardor qilish shakliga o‘tkazildi. Joriy yilning olti oyida soliq to‘lovchilar faoliyatida tekshirishlar o‘ziga yilning mos davriga nisbatan 40 foizga kamaygan.

Umuman, o‘tgan bir yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingtaga ko‘paygan, o‘rta tadbirkorlar soni 2 mingtaga oshib, 10 mingga yetgan. Yirik korxonalar soni esa bir yilda 400 taga ko‘payib, 1,5 mingta bo‘ldi.

Berilgan yengilliklardan foydalanib, bir yilda 155 ta korxonaning yillik ayatlanmasi 100 million dollardan oshgan. Kiritilgan yillik xorijiy sarmoyalar hajmi esa ilk bor 10 milliard dollarga yetgan.

Ochiq muloqotlardan keyin, so‘nggi ikki yilda korxonalarimiz tomonidan 25 milliard dollarlik mahsulotlar eksport qilingan va avval import bo‘lgan 10 milliard dollarlik mahsulotni o‘zimizda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev muloqotdagi ma‘ruzasida beshta asosiy yo‘nalishni ko‘rsatib o‘tdi. Ularning har biri o‘z ichiga ko‘plab tashabbuslarni qamrab oldi.

Birinchi yo‘nalish — kichik biznesga yangi imkoniyatlar.

Bu soha vakillarini tadbirkorlikka o‘qitish, ularga loyihaga tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlarga bozor va biznesiga sheriklar topish bo‘yicha yaxlit ekotizim yaratilishi qayd etildi. Buning uchun, eng avvalo, “Qishloq-qurilish banki” “Biznesni rivojlantirish banki”ga aylantirildi. Bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi. Ularda o‘qigan tadbirkorlarning loyihalari eng qulay shartlarda moliyalashtiriladi. Bu dasturda ishtirok etayotgan kichik biznes korxonalari faoliyatini uch yilgacha tekshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Umuman, kichik biznesda kamida 150 mingta subyektni “oyoqqa turg‘uzish”, 25 mingtasini o‘rta korxonalariga aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o‘rni yaratish maqsad qilingan.

Ikkinchi yo‘nalishda o‘rta biznesga oid tashabbuslar ilgari surildi.

Jumladan, kichikdan o‘rta biznesga o‘tish istagida bo‘lgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun bu boradagi jamg‘armalarning faoliyati ham, ishlash usuli ham o‘zgartirildi. Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi orqali yangi loyihalarni moliyalashtirish uchun xorijiy valyutada 5 foiz, milliy valyutada 10 foiz stavkda 10 yil muddatga kreditlar ajratiladi.

Sanoat ipotekasi tizimi yo‘lga qo‘yilib, tadbirkorlarga “taylor biznesi” shaklida ishlab chiqarish maydonlari qurib berildi. Jumladan, har bir viloyatda kamida 3 tadan yangi sanoat zonalarini tashkil etiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi iqtisodiyotning yana bir drayveri bo‘lgan xizmatlar sohasiga mas‘ul bo‘ladi. Jamg‘arma turizm, savdo va servis sohalarida “xizmatlar ipotekasi” tizimini joriy qiladi.

Ushbu yangi imkoniyatlar hisobidan qo‘shimcha 1 milliard dollarlik xizmatlar, 5 milliard dollarlik yangi mahsulotlar, 350 ming yangi ish o‘rinlari tashkil qilish mumkinligi aytiladi.

Uchinchi yo‘nalish yangi bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulot bilan kirish bo‘yicha bo‘ldi.

— Biz ayrim mamlakatlar kabi neft-gaz resurslarini sotish hisobidan yuqori iqtisodiy o‘sishni ta‘minlay olmaymiz. Bizning neftimiz ham, gazimiz ham bu — Siz kabi tashabbuskor va ishbilamon tadbirkorlar yaratayotgan yuqori qiymatli va sifatli mahsulotlardir, — dedi Prezident.

Bu yo‘nalish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani samarasida so‘nggi to‘rt yilda eksportchi korxonalar soni 4 ming 500 tadan 7 ming 200 taga ko‘paygan. Eksport mahsulot turlari 1 ming 500 tadan 3 mingtaga oshib, geografyasi 139 ta mamlakatdan 164 taga kengaygan.

O‘tgan yili “Yangi O‘zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi boshlangan edi. Uning doirasida 100 ta yetakchi eksportchi korxonaga kredit, soliq, bojxona bo‘yicha alohida rejim joriy qilindi.

Muloqotda mazkur dastur joriy yilda ham davom ettirilishi va qamrab olinadigan korxonalar soni 500 taga yetkazilishi ma‘lum qilindi.

Davlatimiz rahbari nufuzli xorijiy brendlarni mamlakatimizga jalb qilish masalasi alohida ahamiyat qaratildi. Buning uchun xorijiy hamkorlar so‘roviga muvofiq, ishlab chiqarishga xalqaro standartlar, ekologiya va sertifikatlash talablarini hamda qulay bojxona rejimini joriy qilish, mahalliy korxonalaridagi ishchilarga munosib mehnat sharoitlari yaratish zarurligi ta‘kidlandi. Yirik brendlarni jalb qilgan korxonalariga grant ajratish taklifi bildirildi.

To‘rtinchi yo‘nalish — yuqori daromadli korxonalarini ko‘paytirish. Shu maqsadda xalqaro konsultantlarni jalb qilgan holda, elektrotexnika, to‘qimachilik, chirm-poyabzal, zargarlik, qurilish materiallari, mebelsozlik, polimer, kimyo va oziq-ovqat sanoati bo‘yicha 140 ta loyiha ishlab chiqilgan. Ularning jami qiymati 10 milliard dollarga teng bo‘lib, 60 mingta ish o‘rinlarini yaratish, yiliga 5 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish hamda 2,5 milliard dollarlik eksport qilish ko‘zda tutilgan. Ushbu tayyor loyihalar tadbirkorlarga taklif qilindi.

Beshinchi yo‘nalish soliq ma‘murchiligini soddalashtirish, byurokratiyani yo‘q qilish masalalariga qaratildi. Prezident bu sohada korruptsiya bilan bog‘liq shikoyatlar ko‘payib ketgani, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarishda soliq uzilishi koeffitsiyentini qo‘llash amaliyoti (tax-gap) adolatsiz ekanini qayd etdi. Shu bois, 1-oktabrdan boshlab, ushbu amaliyot bekor qilinishi belgilandi.

Barcha moliyaviy sanksiyalar qayta ko‘rib chiqilib, adolatti me‘yorlar belgilanishi ta‘kidlandi.

Shuningdek, tadbirkorning soliq idoralari bilan bo‘ladigan barcha nizolarini ko‘rish ma‘muriy sud vakolatiga o‘tkazildi. Ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga shikoyat qilishidagi har qanday cheklavlar olib tashlanadi.

Ishbilarni o‘zaro va xarajatlarini tejash maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab, bir-birini takrorlovchi va eskirgan hisobotlar tugatiladi. Barcha hisobotlarni yagona elektron tizim orqali taqdim etish yo‘lga qo‘yilib, ularning qog‘oz shakli bekor qilinishi aytiladi.

— Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida har bir yil ulkan dastur va loyihalarni amalga oshirish davri bo‘lib qolmoqda. Hayot sinovlarida toblangan, mard va tashabbuskor tadbirkorlarimiz bor ekan, biz albatta ko‘zlagan marralarimizga erishamiz, — dedi Prezident so‘zining yakunida.

Ochiq muloqot savol-javob tarzida davom etdi. Tadbirkorlar aytilgan taklif va muammolar yuzasidan mutasaddilarga ko‘rsatmalar berildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

TADBIRKORLAR KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Bakiyev Dilshod Baxtiyarovich — Ohangaron shahridagi “Ohangaron quvur metallurgiya zavodi” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent viloyati

Iminjanov Adxam Sharipjanovich — Namangan shahridagi “Iftixor kiyim sanoat” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Namangan viloyati

Nabijonov Zokirjon — Qo‘rg‘ontepa tumanidagi “KhanTex-Group” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Andijon viloyati

Rasulov Ulugbek Djmalitdinovich — Chilonzor tumanidagi “Orient Ceramic” xususiy korxonasi ta‘sischisi, Toshkent shahri

Sainuridinov Saidmuxtor Saidgarofarovich — Ohangaron shahridagi “Premier Electrotech” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent viloyati

Hojiyev Shabon To‘rayevich — Vobkent tumanidagi “Kumushkent ipagi” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Buxoro viloyati

Ergashev Tojmurad Toshpo‘latovich — Bandixon tumanidagi “Xo‘jaipok Toshkent” qo‘shma korxonasi bosh direktori, Surxondaryo viloyati

“Do‘stlik” ordeni bilan

Abdullayev Raxmatjon Axmadovich — Yangiyo‘l tumanidagi “Almerro Group” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Atabayev Baxram Ruzmetovich — Qo‘shko‘pir tumanidagi “Ummon baliq” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Xorazm viloyati

Bekjanova Amina Karimbayeva — Mo‘ynoq tumanidagi “Muynak Tour” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Kabulov Irkin Abdusamatovich — Jizzax shahridagi “Jizzax Eco Textile” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ijrochi direktori, Jizzax viloyati

Mamatqulov Bekzod Akmalovich — Yashnobod tumanidagi “BMB Trade Group” kompaniyasi kuzatuv kengashi raisi, Toshkent shahri

Manshayev Aleksey Nikolayevich — Qibray tumanidagi “Kanishka Fur” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Toshkent viloyati

Mirziyaton Mirto‘xir Mirdjamilovich — Yunusobod tumanidagi “Chipland” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Olimov Kaxramonjon Anvarovich — Mirobod tumanidagi “New retail” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Usmanova Barchinoy Mamatkulovna — Guliston shahridagi “Agro Youth” ishlab chiqarish kooperativi direktori, Sirdaryo viloyati

Fayziyev Ibragim Axmadjonovich — Navoiy shahridagi “Navpromlitmas” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Navoiy viloyati

Xidoyatov Anvar Kilichovich — Ohangaron shahridagi “Silk Plast Quality” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Toshkent shahri

Xurshit Ilyas — Buxoro tumanidagi “Buxara Varnet” xorijiy korxonasi ta‘sischisi va bosh direktori, Buxoro viloyati

Sharipov To‘xir Miraximovich — Sergeli tumanidagi “Alutex” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Shukurayev Dilshod Dalerovich — Samarqand shahridagi “Zarmed Pratiksha Hospital Group” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Samarqand viloyati

Eshonxojayev Axmadjon Mamatxonovich — Kosonsoy tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi, Namangan viloyati

“Shuhrat” medali bilan

Artiqov O‘ktamjon Abdirayimovich — Asaka tumanidagi “Sino International Invest” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Andijon viloyati

Axmedov Akmal Qaviljonovich — Sharof Rashidov tumanidagi “Euro Aziya Motors” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Jizzax viloyati

Gyuymush Maxfuza Malikjanovich — To‘raqo‘rg‘on tumanidagi “Runamtex” xorijiy korxonasi direktori, Namangan viloyati

Dadaxodjayev Saydullo Maxammadjanovich — Andijon tumanidagi “Emery Pharma” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Andijon viloyati

Darbishev Javlonbek Abdulkalichovich — Mirzaobod tumanidagi “Gulistan Gold Yarn” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Sirdaryo viloyati

Djumanova Gavjarjan Raximbayeva — Urganch shahridagi “Darilat Shoes” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Xorazm viloyati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2023-yil 18-avgust

SH. MIRZIYOYEV

BIZ VA DUNYO

O‘zbekiston – Vengriya:

UZOQ MUDDATLI SHERIKLIK YO‘LIDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-20-avgust kunlari tashrif bilan Vengriyada bo‘ladi.

Vengriya Markaziy-Sharqiy Yevropadagi jadal rivojlanayotgan davlatdir.

O‘zbekiston mustaqilligini Vengriya 1991-yil 26-dekabrda tan olgan, 1992-yil 3-mart kuni esa mamlakatlarimiz o‘rtasida diplomatiya munosabatlari o‘rnatilgan edi.

Shu paytdan boshlab izchil rivojlanish yo‘liga kirgan siyosiy muloqot bugungi kungacha kelib, yangi o‘svuchanlik kasb etdiki, u barcha darajadagi o‘zaro munosabatlarning yuqori faolligi bilan ajralib turadi.

Vengriya bosh vaziri Viktor Orbaning 2021-yil mart oyida O‘zbekistonga, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil oktabr oyida Vengriyaga rasmiy tashriflari zamonaviy bosqichda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishga kuchli turki berdi. Xususan, ikki davlat rahbarlarining Budapeshtda bo‘lib o‘tgan uchrashuvi yakunlari bo‘yicha 15 ta ikki tomonlama hujjat, jumladan, Strategik sheriklikni rivojlantirish to‘g‘risidagi Qo‘shma bayonot imzolandi.

O‘zbekiston va Vengriya BMT, YXHT, Vengriya kuzatuvchi mamlakat sifatida faoliyat yuritadigan Turkiya davlatlar tashkiloti singari xalqaro tashkilotlar doirasida samarali hamkorlik qilmoqda.

Vengriya bosh vaziri Viktor Orban 2022-yil 11-noyabr kuni Samarqandda bo‘lib o‘tgan Turkiya davlatlar tashkiloti yig‘inida ishtirok etish uchun O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev va bosh vazir Viktor Orban joriy yil mart oyida Anqarada bo‘lib o‘tgan Turkiya davlatlar tashkilotining navbatdan tashqari sammiti doirasida ham uchrashdilar.

Ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlar mexanizmi samarali ishlamoqda, yuqori darajadagi tashrif almashuvlari faollashdi. Masalan, Vengriya tashqi ishlar va savdo vaziri Petr Sziyarto mamlakatimizga bir necha bor tashrif buyurdi. Tashriflar chog‘ida respublikamiz vazirlik va idoralarda samarali muzokaralar o‘tkazildi, davlatimiz rahbari bilan uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi.

Parlamentlararo yaqin muloqot ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, u bugungi kunda faol tashrif almashuvlari va ikki mamlakat parlamentlarida do‘stlik guruhlari faoliyat olib borayotgani bilan ajralib turadi.

Savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikda ham yangi o‘svuchanlik yuzaga keldi. Bu yo‘nalishdagi o‘zaro hamkorlikning o‘shis nuqtalari tobora ko‘payib bormoqda.

Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya, shuningdek, 2021-yil fevral oyida tashkil etilgan ishlabirmonlik kengashi bu boradagi hamkorlikning samarali mexanizmlari sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Joriy yil 27-iyul kuni Budapeshtda Hukumatlararo komissiyaning 8-yig‘ilishi va O‘zbekiston — Vengriya biznes forumi bo‘lib o‘tdi. Ularning yakunlari bo‘yicha iqtisodiyot, savdo va moliya, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, ilm-fan va ta‘lim, tibbiyot hamda farmatsevtika, madaniyat va sayyohlik singari xalqaro qo‘shma loyihalar bo‘yicha yangi kelishuvlarga erishildi.

Ikki tomonlama tovar aylanmasi 2018-yil oxirigacha salkam ikki barobar o‘sdii, 2022-yil yakunlari bo‘yicha 92,7 million AQSH dollarini tashkil qildi. Joriy yilning bosh oy

mobaynida o‘zaro savdo hajmi 40 million dollardan oshdi.

O‘zbekistonning Vengriyaga eksportining asosini to‘qimachilik mahsulotlari, xizmatlar, oziq-ovqat mahsulotlari, plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar tashkil etadi. O‘z navbatida, O‘zbekiston Vengriyadan farmatsevtika, chorvachilik mahsulotlari, mexanik va elektr uskunalari va boshqa tovarlar import qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda Vengriya kapitali ishtirokida tashkil etilgan 16 korxonada muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Ularning 10 tasi qo‘shma korxonalaridir. Ular orasida Vengriyaning farmatsevtika, mehmonxonona biznesi, qishloq xo‘jaligi, qurilish hamda savdo sohalarida faoliyat ko‘rsatadigan “Gedeon Rixter”, “EGIS”, “ENIKO”, “Xorus Intertreyd end Konsalting” va boshqa kompaniyalari bor. Sarmoyaviy hamkorlik ham jadal ravnaq topmoqda. Vengriyaning “OTP banki” O‘zbekistondagi “Ipoteka-banki”ning davlat ulushini xususiy lashtirishni yakunlash, Toshkent viloyatida “BonaFarm” va “Master Gud” bilan qo‘shma parandachilik klasterlarini barpo qilish, “Viz Eyr Uzbekistan”, “Viz Eyr” qo‘shma aviatashuvchini tashkil etish, Jizzax viloyatida “KITE” kompaniyasini Jizzax intensiv mevali bog‘lar yaratish va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, “RABA” va “Joyson Seyfiti” kompaniyalari bilan O‘zbekistonda avtomobillarning butlovchi qismlari ishlab chiqarishini mahalliy lashtirish va boshqa yirik loyihalar amalga oshirilish bosqichida turibdi.

mashhur venger sharqshunosi va XIX asr sayyohi Amiy Vamberning sharafiga Vengriya viloyati o‘kashunoslik muzeyida yodgorlik lavhasining ochilishiga bag‘ishlangan marosimda ishtirok etdi.

Yana bir e‘tibori jihat, Prezidentimizning Vengriyaga tashrifi kunlari Vengriya davlati tashkili topgan sana, 20-avgust — an‘anaviy asosiy davlat bayrami — Vengriya davlati asoschisi Avliyov Ishtvan kuni nishonlanadi. 970-975-yillar oralig‘ida tavallud topgan Ishtvan I Vengriyaning birinchi qiroli bo‘lgan. U 1000-yili rasman to‘kiygan va 1038-yilga qadar davlatni boshqargan. Qiziqarli jihat shundaki, cho‘qintirilishidan avval uning ismi kelib chiqishi turkiy so‘z bo‘lib, “qahramon” yoki “yetakchi” nomini anglatadigan Vayk bo‘lgan. Tarixiy solnomalarda Ishtvan I Yevropa rusumidagi mustaqil Vengriya davlatiga poydevor qo‘ygan adolatti, saxovatli va oqil monarx sifatida tilga olinadi.

O‘zbekiston Madaniyat vazirligi va Vengriya Inson resurslari vazirligi o‘rtasida Madaniyat sohasida 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi imzolangan.

2017-yil 21-dekabrda Ta‘lim, ilm-fan va madaniyat sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo bitim oliy ta‘lim jahvasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda. 2018-yildan buyon Vengriya har yili O‘zbekiston fuqarolariga ushbu mamlakatdagi universitetlarda o‘qish uchun 30 ta grant stipendiyalari taqdim etib kelayotgan edi, 2020-yil aprel oyidan boshlab ularning soni 170 taga ko‘paydi. Hozirgi kunda Vengriyadagi ta‘lim muassasalarida 100 nafardan ortiq O‘zbekiston fuqarolari tahsil olmoqda.

2021-yil iyun hamda 2023-yil may oylarida Budapesht va Toshkentda universitetlar rektorlarining O‘zbekiston — Vengriya forumlari bo‘lib o‘tdi. Ularning natijalari bo‘yicha tomonlar o‘rtasida 60 dan ortiq bitimlar tuzildi.

Ko‘p yillardan buyon O‘zbekiston va Vengriya universitetlari Yevropaning “Tempus”, “Erasmus” va boshqa ta‘lim dasturlari doirasida ham hamkorlik qilib kelmoqda.

Bosh vazir Viktor Orbaning O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida Toshkentda Debretsen universiteti filialini ochish to‘g‘risida bitim imzolandi. Bu filial O‘zbekistonda uch yo‘nalish — qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya va farmatsevtika bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydigan Vengriyaning birinchi ta‘lim muassasasi bo‘ladi.

Vengriyada o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishga qiziqish ham ortib bormoqda. Xususan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining uch nafar olimi birinchi marta 2023-yil may oyida Budapeshtdagi Lorand Etyvosh universitetida uch hafta davomida o‘zbek tili kursini o‘tkazdi.

Vengriya tomoni bilan innovatsiyalar sohasida kadrlar tayyorlash, mutaxassislar malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish, shuningdek, innovatsiya infratuzilmalarini rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro tajriba almashish hamda Vengriya tadqiqotlar, rivojlanish va innovatsiyalar bo‘yicha milliy boshqarmasi bilan birgalikda startap loyihalar va akselerator dasturlarini qo‘llab-quvvatlash, inkubatorlar va texnoparklar sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

O‘tgan yili bo‘lib o‘tgan Hukumatlararo qo‘shma komissiya yig‘ilishi doirasida o‘zaro turistik oqimlarni ko‘paytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan Sayyohlik sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Shu o‘rinda qayd etish o‘rinliki, O‘zbekistonda 2018-yil fevral oyidan boshlab Vengriya fuqarolari uchun sodalashtirilgan viza rejimi amal qilmoqda.

Toshkent va Budapesht o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri havo qatnovlarining yo‘lga qo‘yilishi muhim voqea bo‘ladi. Joriy avgust oyida ushbu yo‘nalishdagi birinchi havo qatnovini amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

O‘zbekiston va Vengriya shaharlari o‘rtasida havo aloqalari o‘rnatilishi, shubhasiz, sayyohlar oqimining sezilarli darajada ko‘payishiga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

OCHIQ MULOQOT TAASSUROT LARI

MAVJUD MUAMMO VA KAMCHILIKLARGA BIRGALIKDA YECHIM TOPISHNING ENG SAMARALI YO'LI

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan an'anaviy ochiq muloqoti tom ma'noda davlat va soha vakillari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, tadbirkorlarni qiynayotgan masalalarni hal etishning samarali yo'li bo'lib qolayotir.

Kecha bo'lib o'tgan navbatdagi uchrashuvda davlatimiz rahbari kamchiliklardan to'g'ri saboq chiqarib, faqat oldinga intilsak, mehnatkash xalqimiz, ishbilanmon tadbirkorlarimiz har qanday mashaqqatni yengib o'tishiga ishonch bildirib, muammolarni bevosita biznes vakillarining o'zidan eshitib, ularga birgalikda yechim topish va bu orqali tezkorlik bilan qaror qabul qilish eng to'g'ri yo'li, deya ta'kidladi.

Chindan ham ochiq muloqotda tadbirkorlarning ayni dildagi gaplar aytiladi. Davlat rahbari hayotiy tashabbus va g'oyalarni o'rta qo'yib, soha vakillarini yangi

maqsadlar sari ruhlantirdi. Shu jihatdan olganda, ushbu tadbir sohani rivojlantirish choralarini ishlab chiqish bo'yicha o'ziga xos muloqot maydoniga aylanmoqda, desak mulohaza bo'lmaydi.

Shuningdek, Prezidentimizning tegishli farmoyish va farmoni asosida taqdirlangan bir guruh tadbirkorlarimizga shu yerning o'zida davlatimizning yuksak mukofotlari topshirildi.

Shundan kelib chiqib, yuksak mukofotlarga loyiq ko'rilgan soha vakillaridan ayrimlarining fikrlarini e'tiboringizga havola qilishni lozim topdik.



TADBIRKORGA MUNOSABAT TUBDAN O'ZGARGAN



Bekzod MAMATQULOV,
Yashnobod tumanidagi "BMB Trade Group" kompaniyasi kuzatuv kengashi raisi, "Do'stlik" ordeni sohibi

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti an'anaviy tusga kirdi. Yangi O'zbekiston tadbirkorlari 20-avgust sanasini intiqlik bilan kutadi. Ya'ni o'zidagi barcha savol va muammolarni bilan shaxsan davlat rahbariga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Eng muhimi, bu yerda ularga yechim topadi va albatta, kelajak uchun o'z oldiga yangi maqsadlar qo'yadi.

Navbatdagi uchrashuvda ham davlatimiz tomonidan ushbu yo'nalishda amalga oshirilajak beshta ustuvor vazifa sanab o'tildi. Kichik biznesdan o'rta biznesga o'tish jarayoni, raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari shular jumlasidan.

Albatta, bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik borasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami tobora kengaymoqda. O'zgarishlar katta. Lekin shular qatorida ayrim kamchiliklar ham uchrab turibdi. Prezidentimizning aynan soliq borasida byurokratiyaning yo'q qilinishi bo'yicha bildirgan takliflari ishbilanmonlar, eksportchi korxonalar uchun qo'l keladi.

Korxonamiz ham eksport bilan shug'ullanadi. O'tgan yili 35 million dollardan ortiq eksport amaliyotini amalga oshirdik. Bunda tadbirkorlarga bog'liq bo'lmagan hollarda uzilishlar, to'xtalishlar bo'lib qolardi. Bugun ana shu muammolar yechimi topildi.

2023-yil 1-oktabrdan Tax Gap bekor bo'lishi tadbirkorlarni mamnun qildi. Tekshiruvlarning katta sinfdagi tadbirkorlarga uch yilga o'xtalishlari ham katta imkoniyat, deb o'ylayman.

Berilgan sharoitlardan oqilona foydalanib, mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish va qo'shimcha ish o'rnlari, qo'shimcha qiymat yaratish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish oldimizdagi muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Kompaniyamizning Baxmal tumanidagi yo'nalishi bo'yicha fa'ol yechim topildi. Bugungi kunda ushbu mahsulot qayta ishlanib, Italiya, AQSH bozorlariga eksport qilinmoqda. Bu mamlakatimizda tadbirkorlikka berilgan katta imkoniyatning bir samarasi, deb bilaman.

Oxirgi yetti yilda mamlakatimizda tadbirkorlik muhiti tubdan yaxshilandi. Tadbirkorlarga munosabat mullatqo' o'zgardi. Tadbirkor o'z hurmatiga, o'rni ega bo'ldi. Chekka-chekka joylardagi tadbirkorlar mehnati munosib rag'bat topib, taqdirlandi.

Uchrashuvda tadbirkorlar uchun moliya muassasasi nomi o'zgartirilib, "Biznesni rivojlantirish banki" tashkil etilishi, uning ustav fondi 1 milliard dollar qiymatida belgilangani, aynan tadbirkorlar bilan ishlashi qayd etilgani yana bir katta voqeik bo'ldi.

O'ZLASHTIRILMAGAN YOKI QAROVSIZ YERLAR BOR ULARNI HAQIQIY DAROMAD MANBAYIGA AYLANTIRISH MUMKIN

Azamat SULTONOV,
"Buxoro agroklasteri" MCHJ direktori,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jaligi xodimi

Bir vaqtlar qishloq xo'jaligida barqaror ish o'rnlari, degan tushuncha deyarli yo'q edi. Faqat mavsumiy ish o'rnlari bo'lardi. Klaster tizimi mana shu kabi qator masalalarning yechimi bo'ldi.

Biz uzoq yillar qishloq xo'jaligida tavakkalchilik asosida faoliyat yuritdik. Suv sarfi, yerga munosabat — hech birida bilimni ishga solmadik. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan klaster tizimi yo'lga qo'yilgach, sohaga keng imkoniyatlar berildi. Shu bilan birga, zimmamizga ham katta vazifalar yuklandi. Imkoniyatlardan unumli foydalanish uchun izlanishimiz kerak edi. Bu borada islohotlar bizga kuch berdi. Zamonning o'zi bizning oldimizga har jabhada ilg'or bo'lish, izlanish shartini ko'ndalrang qo'ydi.

Klasterimiz tashkil etilganiga atigi to'rt yil bo'lishiga qaramay, katta natijalarga erishdik. "Buxoro agroklasteri" tizimida ellikka yaqin korxonalar mavjud. Shulardan biri — "Buxoro

agroklasteri DZZ" korxonasi sutni qayta ishlash va qadoqlash yo'lga qo'yilgan. Bilasizmi, qishloq xo'jaligida o'zlashtirilmagan yoki qarovsiz yerlar bor. Ammo ularni haqiqiy daromad manbaiga aylantirish mumkin. Shu maqsadda qarovsiz maydonda zamonaviy majmua barpo etdik. 2021-yilda ochilgan korxonada bugungi kunda yiliga 22 ming tonna sut qayta ishlanmoqda. Undan tayyorlanayotgan kefir, sut, pishloq, yogurt, qaymoq, smetana kabi mahsulotlar turi 40 dan ortiq, 150 kishi ish bilan ta'minlangan. Maqtanish emas, bu kabi korxonalarimiz ko'p. Ish ko'lami va daromadning ortishi bilan klaster faoliyatini kengaytirish, barcha xizmatlar, ehtiyojni o'z imkoniyatlarimiz orqali qoplashga harakat qildik.



Buxoro viloyati ekin maydonlarining sho'rlanganlik darajasi boshqa hududlarga nisbatan yuqori. Bu holat tuproq tahlilini talab qiladi. Ya'ni ushbu resursning kimyoviy tarkibi o'rganilib, shu orqali o'simliklarning mineral va organik o'g'itlarga bo'lgan talabini bilish orqaligina hosildorlikni oshirish mumkin. Ana shu talab bois, korxonada tizimida yer maydonlari unumdorligini aniqlab beruvchi zamonaviy laboratoriya tashkil qildik.

TASHABBUS BILAN KO'ZLANGAN MARRAGA ERISHISH OSON

Malika PODSHOYEVA,
"Hunarmand" uyushmasi a'zosi, Boysun tumanidagi "Malika" xususiy korxonasi rahbari, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibasi



Hunarmandlik bilan shug'ullanayotganimga 40 yildan oshdi. Avvallari bu yo'nalishga bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun shunchaki bir vosita sifatida qaralardi. Bugun esa bu soha haqiqiy daromad manbaiga aylanib, hunarmandlar tadbirkor, biznes olami vakili sifatida tilga olinadi. Milliy ruhda tikilgan so'zanalor, gilamlar, kiyimlarda qadriyatlarimiz avlodlar-avlodga o'tib kelayotganini ko'rib, zavqlanmas kishi.

Hunarmandlar sulolasining beshinchi avlodim. Ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalar o'rni tobora ortib borishiga qaramay, qo'l mehnati asoslangan buyumlarga talab pasaygani yo'q. Bu, albatta, bizni quvontiradi. Boy madaniy merosimni qayta tiklash, rivojlantirish maqsadida "Malika" xususiy korxonasi tashkil etib, Boysun kashtachilik maktabining eng qadimgi turlarini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldik. Daromadimiz yaxshi. Mahsulotlarni mahalliy bozorlar va sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan turistik markazlarga yetkazib beramiz.

Milliy hunarmandlik mahsulotlari Boysunning nafaqat tashrif qog'oziga aylandi, balki hudud yoshlarining

bandligini ta'minlashda ham yechim bo'lmoqda. Qadim an'analarini zamonaviy tajriba bilan uyg'unlashtirib, katta yutuq va natijalarni qo'lga kiritishimizda yaratilayotgan imkoniyatlar yaxshigina tayanch bo'lyapti. Bandalika ko'maklashish markazi bilan hamkorlikda uyda o'tirgan, ijtimoiy hayotga muhtoj yoki jismoniy imkoniyati cheklangan ayollarga hunar o'rgatib kelayapmiz.

Bizni quvontirgani, chet elliklar ham qiziqib, milliy hunarmandchilgimizni o'rganyapti. Xususan, boy-sunliklar qo'lida sayqal topayotgan to'quvchilik va tikuvchilik mahsulotlari kunchiqar yurt vakillarida katta qiziqish uyg'otmoqda. O'zbek — Yapon uyushmasi tomonidan yapon ayollari uchun mahorat darslari, o'quv-amaliy mashg'ulotlar o'tkazib kelinmoqda. Boysun tumanidagi hunarmandlar markazida yaponiyalik shogirdlarga ham hunar sirlarini o'rgatayapmiz.

Hunarmandlarga imtiyozli kreditlar ajratilib, loyihalarni moliyalashtirish uchun zarur mablag' yo'naltirilishi qo'lgul insonlar uchun katta imkoniyatlar tuhfa etdi. Bir yil avvalgi ochiq muloqot ko'p yillik muammolarga yechim, yangi loyihalarga asos bo'lgan edi. Bildirilgan takliflar, berilgan va'dalarning barchasi hujjatlar ko'rinishida qonuniy kuchga kirdi va ko'plab islohotlar amalga oshirilishida muhim omil bo'ldi.

To'g'risi, bu safargi muloqotni ham hayotimga quvonch olib kiradigan shodiyona kundek intiqlik bilan kutdim. Ochiq muloqot tizimi ishlarning davomi sifatida har birimizning katta yutuqlarga erishishimizga xizmat qiladi.

Oxirgi yillardagi islohotlar bizda biznes yuritishga ishonchni oshirdi. Xususan, usta-shogird an'analar asosida yoshlarga hunar o'rgatayotgan hunarmandlarga shogirdlar tayyorlashi, zarur xomashyo sotib olishi va ishchilarni ish haqi bilan ta'minlashi uchun 6 oy davomida har oyda BHMning 2 barobaridan kam bo'lgan miqdordagi subsidiya ajratilishi sohaga qiziqishi bor, ammo sarmoyasi yo'q hunarmandlar uchun yaxshi imkoniyat bo'ldi.

Davlatimiz rahbari ochiq muloqotda kelgusi yillar uchun belgilab olgan reja va dasturlarimizni amalga oshirish oson bo'lmagani, lekin hayot sinovlarida toblangan, so'zida ham, ishida ham qat'iyat bor, mag'd va tashabbuskor tadbirkorlar bilan ko'zlangan maralarga albatta erishilishiga ishonch bildirdi. Kuni kecha "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlandim. Bu esa zimmamga doim elimizga nafi tegadigan tashabbuslar bilan chiqishdek mas'uliyatli vazifani yuqalaydi.

YUKSAK ISHONCH VA RAG'BAT YANADA FAOLLIKKA UNDAYDI

Gavhar RIZAYEVA,
Parkent tumanidagi "Zarkent Gavhari" fermer xo'jaligi rahbari, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibasi

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqoti chog'ida aytgan har bir gapi bizni g'ururlantirdi. Yana bir bor "Ikkitagina ish o'rni yaratgan tadbirkorni yelkamda ko'taraman", deya ta'kidladi. Bu ishonch, bu rag'bat ortida samimiyat va haqiqat borligini har birimiz o'z faoliyatimizda ko'ryapmiz. Men el-yurtga xizmat qilishga bel bog'lagan, odamlarni ish bilan ta'minlab, oilalar farovonligiga hissa qo'shishni maqsad qilgan mamlakatimiz tadbirkorlarining bir vakili sifatida oldimga yanada katta maqsadlarni qo'ydim.

Bir ayol sifatida o'zimni baxtli his qilaman. Chunki, avvalo, yurtimiz tinch, oilalarimiz xotirjam, farzandlarim bag'rimda. Qolaversa, qo'lmda hunarim, ishim bor. Bir nechta yo'nalishda tadbirkorlik qilib, shuning ortidan odamlarni ish bilan ta'minlayapman. Asosiysi, doim intilish, harakatdaman. Bular bari insonga faqat mamnunlik bag'ishlaydi.

Bugun ana shu quvonchim yanada ortdi. Davlatimiz rahbarining farmoni bilan bir guruh ishbilanmon, mamlakatimiz iqtisodiyotiga hissa qo'shayotgan insonlar qatori men ham "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlandim. Xushxabarni eshitib, chekka bir qishloqdagi ayolga bo'lgan e'tibor, e'tirofdan ko'nglim ko'tarildi. Yana qancha tadbirkor xotin-qiz mendek quvonayotganini tasavvur qilavering.



O'zim qishloq xo'jaligi sohasida 2006-yildan buyon ishlab kelaman. Fermer xo'jaligini tashkil etganimga, ishni meva-sabzavot, uzum yetishtirishdan boshlaganman. Hozir xo'jaligimda asalarichilik, baliqchilik, chorvachilik ham bor. Mineral suv va qog'ozni qayta ishlashni yo'lga qo'yganimiz. Xo'jalikda 20 ta doimiy, 30 ta mavsumiy ishchi mehnat qiladi. Tarmoqlarning har biridan oladigan daromadimiz o'ziga yarasha. Ammo asosiysi yo'nalishimiz va daromadimiz uzumchilikdan.

Fermer xo'jaligidagi 76 gektar yer maydonining salkam 35 gektarida uzumzor tashkil etilgan. Men istiqomat qiladigan Zarkent qishlog'i azaldan uzumchilikda dong taratgan. Qishlog'imiz aholisining 90 foizi mirishkor bog'bonlar. Bu yerning tabiati, iqlimi, lalmi yerlari, qir-adirlari uzumchilik uchun qulay. Shu bois, bu yerda pishib yetiladigan uzumlar ta'mi, ko'rinishi bilan boshqa hududlarimizdan ajralib turadi. Parkent tumaniga kirib kelishingiz bilan qir-adirlar, baland tepaliklar orolab yuraversangiz, yo'l-yo'lakay turli usulda parvarishlanayotgan uzumzorlarga ko'zingiz tushadi.

Bu yerliklar uzum yetishtirishda o'ziga xos tajribaga ega. Aksamiyat avlodlar-avlodga o'tib kelayapti. Men ham soha sir-asrorini qaynotam

— mashhur bog'bon ustozimiz Tojiboy Rizaevdan o'zlashtirganman. Bugun ular asos solgan bog'rog'larda mehnat qilib, tajribalarini yoshlarga, kelajak avlodga o'rgatayapmiz. Masalan, uzum hosili terib olingach, boshqa hududlardagi kabi tok yerga ko'milmaydi. Bizda bir oz boshqacharoq, tok novdalari yerga yotqizilib, o'zining barglari bilan yopiladi. Zarkentliklarning aksariyati tokni shu usulda qishdan omon saqlaydi. O'tgan yili Agrar soha ayollari uyushmasi a'zosi sifatida Navoiy viloyatiga borib, o'z tajribamni ularga o'rgatib keldim. Bajarlilsh lozim bo'lgan agroteknik tadbirlarni ko'rsatib berdim. Bunday tajribalarni boshqa hududlarda ham ommalashtirishga harakat qilayapmiz.

Umuman, qaysi soha bo'lmasin, uni yaxshi bilgan, tushunib ish qilgan tadbirkor doim natijaga erishadi, daromad topadi. Xo'jaligimizda mayizbop kishmish, eksportbop pushti toyfi, sug'diyona, rizamat hamda vinobop uzumlar yetishtiriladi. O'tgan yili ichki bozorga 200 tonna, eksportga 300 tonna mahsulot chiqardik. Bu yilgi hosildorlik ham yaxshi, hozirgacha 80 tonna uzum terdik. Qo'shni davlatlarga muntazam eksport qilib kelayapmiz.

Hosil oxirida uzumning bir qismini xonadonimizda ota-bobalarimizdan qolgan soyaki usulda quritamiz. Har yili 10-12 tonna uzum quritib, mayiz qilamiz. Qizig'i, quyosh kerak bo'lmaydi, salqin joyda quritiladi. Mayizlar 2,5-3 oyda tayyor bo'ladi. 3 kilogramm kishmishdan o'rtaacha 1 kilogramm mayiz olinadi.

Ko'pchilik tadbirkorlikning daromadiga qiziqadi, ammo mehnat qilmasdan turib, natija kutish — xato. Asosiysi, hozir ayollarmiz hamma ishlardan ortib, ilm olishga, tadbirkorlik qilishga, o'ziga qarab, dam olishga ham vaqt topyapti. Chunki bunga sharoit, imkoniyatlar bor. Ko'nglimiz xotirjam ishlaymiz, boshqalarga ham yordam berishga harakat qilamiz. Oilalar farovon, dasturxonlar to'kin, odamlar xursand bo'lsa, biz bundan ikki karra quvonamiz.

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

MAQSADIMIZ – HAQIQAT YO'LIDA XIZMAT QILUVCHI KADRLAR TAYYORLASH

Mustaqillik erkinlik, xususan, so'z va fikr erkinligi bilan chambarchas bog'langan. Chin ma'nodagi mustaqillik hur va erkin fikrli jamiyat, xalq obrazida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, mamlakatimizda jurnalist kadrlarni tayyorlashga axborot siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralayotgani quvonchli hodisa.

Sherzodxon QUDRATXO' JA, siyosiy fanlar nomzodi, professor



Prezidentimizning 2018-yil 24-maydagi qaroriga muvofiq, mutlaqo yangi tamoyillar, zamonaviy shart-sharoit va ta'lim dasturi asosida mutaxassislar tayyorlaydigan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etilgan media sohasi rivojdagi muhim qadam bo'ldi. O'z yo'nalishi bo'yicha Markaziy Osiyoda yagona universitet mamlakatimizda jurnalistika maktabini shakllantirish, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. Zero, ozod va mustaqil yurtda taraqqiyotni, demokratik qadriyatlarining amalda bo'lishini senzura va bosimlarsiz ijod qiladigan, xalqimizni qiyonayotgan og'riqli muammolarni dadil ko'tarib chiqib, yechim topa oladigan jurnalist kadrlarning yangi to'liqligina ta'minlay oladi.

AXBOROT – TARAQQIYOT BAROMETRI

Dunyoning rivojlangan barcha mamlakatlari kuchli, keng qamrovli axborot tizimiga ega. Qayerda axborot aylanishi sust bo'lsa, taraqqiyot ham sust kechadi. Sobiq ittifoq davrida ham, undan keyingi davrda ham jurnalistika qalami o'tkir, tili achchiq odamlar kerak bo'lmay qoldi. So'z erkinligi anqoning urug'iga aylandi. Jurnalist kadrlar tanqisligi yuzaga keldi. Malakali mutaxassislar boshqa sohalarga o'tib ketdi. Vaholanki, mukammal axborot tizimimiz rivojlanish mushkul. So'z erkinligi — demokratiyaning qon aylanish tizimi, deyilishi bejiz emas. Axborotning ochiqligi, oshkorligi, tezkorligi xalq ongu tafakkuri bilan uyg'unlikda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati shaffofligi, jamiyat oldida hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi. Yangi O'zbekistonda bu haqiqat anglangan holda ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyati uchun muhit yaratilgan, jurnalistlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilgan.

Yaratilgan imkoniyat va sharoitlar natijasi o'laroq, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti hozirgi tez o'zgarayotgan globallashtirish davrida jurnalistikaning o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqbol bilan bog'liq mavzular chuqur o'rganiladigan, ilmiy tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar qilinadigan, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlanadigan makonga aylangan.

Jurnalistik ta'lim yo'nalishlari soni va qamrovi yildan-yilga oshib bormoqda. Universitetimizda dastlabki o'quv yilida 2 ta fakultet, 2

va radioeshittirish, axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar, mediamenejment, PR menejment va PR tahlil mutaxassisliklari mavjud edi. Endi ular qatoriga amaliy siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlari va jahon siyosati, harbiy jurnalistika, media-marketing va reklama, mediadizayn ham qo'shilgan.

Barcha ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun chet til birinchi kursdan to'rtinchi kursgacha dars jadvalidan tushmayapti. Har bir talaba kamida ikkita xorijiy tili bilishi uchun universitetning tillar markazida nafaqat ingliz tili, balki turk, arab, xitoy, nemis, fransuz, rus, ispan, koreys tillari o'qitiladi. Qozoq, qirg'iz, turkman, tojik tillarini o'rgatish ham ko'zlanmoqda. Aynan mana shu ikkinchi xorijiy til bilan qo'shimcha ravishda turli mintaqalar hayotini puxta biladigan xalqaro jurnalistlar, siyosiy sharhlovchilar, siyosatshunoslarni yetishtirish uchun mintaqashunoslik kesimida kadrlar tayyorlash sari qadam qo'yganmiz.

gohlaridagi siyosatshunoslik kafedralari hech qanday rasmiy izohlarsiz 2010-o'quv yili uchun talabalarni qabul qilishni to'xtatdi. 2013-yildan boshlab esa kafedra va fakultetlar yopila boshlagan. 2015-yili O'zbekistonda siyosatshunoslik fani o'qitilmasligi rasman e'lon qilindi.

Vaholanki, siyosatshunoslik fani rivojlanib, yetuk siyosatshunos mutaxassislarisiz fuqarolardan yuksak siyosiy savodxonlikni talab qilib bo'lmaydi. Fan rivoji, ta'lim yo'nalishi mavjudligi aholi dunyoqarashida sog'lom siyosiy immunitetni shakllantirishga yordam beradi.

Universitetdagi xalqaro munosabatlari va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakultetida axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar, siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlari, amaliy psixologiya, sotsiologiya yo'nalishlari bo'yicha jami talabalar soni 525 nafarni tashkil qiladi.

Respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasalari qatori O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

ta kafedra mavjud bo'lgan bo'lsa, ayni kunga kelib, 4 ta — bosma OAV va noshirlik ishi, xalqaro va audiovizual jurnalistika, internet jurnalistikasi va mediamenejment, xalqaro munosabatlari va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakultetlari, 10 ta kafedra, shuningdek, 12 ta bo'lim faoliyat ko'rsatmoqda. Eng muhimi, jurnalistik ta'lim monopollashtirilmagan. Jurnalist kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari soni ko'paymoqda.

YO'NALISHLAR KENGAYIB, QAMROV OSHMOQDA

Universitet tashkil etilgan yilda biz differensial ta'lim shaklini tanladik va jurnalistika ixtisosliklarga bo'lib, 8 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi hamda 10 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'qitishni boshlagan edik. Universitetda yangi yo'nalish, yangi ixtisoslik ochilishi son jihatidan kengayishga, sifat jihatidan takomillashishga xizmat qilmoqda. Bu o'quv yilida esa yana yangi ixtisosliklar qo'shildi, ayni kunda 17 bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 17 magistratura mutaxassisligi mavjud.

Universitetimiz tashkil etilgan dastlabki yilda internet jurnalistikasi, mediadizayn, bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi, mediamarketing va reklama, tereladijurnalistika, sport jurnalistikasi, xalqaro jurnalistika, axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar, keyingi o'quv yillarida harbiy jurnalistika, siyosatshunoslik yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Mazkur o'quv yilidan san'at jurnalistikasi, sayohat jurnalistikasi, iqtisodiy jurnalistika, psixologiya, sotsiologiya kabi yangi ta'lim yo'nalishlari tashkil etildi.

Magistraturada ham noshirlik ishi va muharrirlik, bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi, siyosiy-huquqiy jurnalistika, internet jurnalistikasi, sport jurnalistikasi, oliy jurnalistika kurslari, xalqaro jurnalistika, televideniye



Bugungi jurnalistikamiz rivoji uchun juda kerak bo'lgan drom jurnalistikasi, multimedia jurnalistika, konvergent tahririyat, robot jurnalistikasi, harbiy jurnalistika, sport sharhlovchiligi, krizis davrida PR, mediasavodxonlik va faktcheking, kopirayting, kreativ fikrlash kabi yangi fanlar kiriting borilmoqda. Oldinda qiladigan ishlarimiz juda ko'p. Ta'lim dargohimizni Markaziy Osiyoda nafaqat media va kommunikatsiyaga ixtisoslashgan yagona, balki kommunikatsiya bazasiga qurilgan yirik gumanitar universitet sifatida rivojlantirish maqsadidamiz.

TANAFFUSDAN SO'NG OCHILGAN YO'NALISH

Bizda ko'p yillar siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi yopiq edi. O'zbekiston oliy-



ham kredit-modul tizimiga o'tgan. Bu jarayonda har bir talaba birinchi kursdan to'rtinchi kursga qadar 240 kredit to'plashi kerak bo'ladi.

Amaldagi o'quv rejalar ancha soddalashtirilgan. Avval bitta semestrda 8, 9, hatto 12 tagacha fanni o'zlashtirish rejalashtirilgan bo'lsa, hozir 5 yoki 6 fanni o'zlashtirish belgilanmoqda. Fanlarni shakllantirish va semestrlarga taqsimlash talabalar so'rovlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, gumanitar fanlar kamayishiga va mutaxassislik fanlar ko'payishiga olib kelyapti. Masalan, bir talaba o'qishga kirib bitirguncha qadar taxminan 30 ta fanni o'zlashtiradigan bo'lsa, shundan 3 tasi, ya'ni 1 foizi gumanitar fanlarga to'g'ri kelmoqda.

PEDAGOGLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISHDA SAJHIB VA ILMIY SALOHİYATGA E'TIBOR QARATILDI

Universitetimizda 2022-2023-o'quv yilida 3355 talaba tahsil oldi. Dastlabki yillarda, ya'ni 2018-2019-o'quv yilida 119 nafar bakalavr o'qishni boshladi (tanlov 1 o'ringa 7.5 kishi bo'lgan). Kelasi o'quv yilida 609 talaba, pandemiyaga paytida 1558 talaba, undan keyingi yil bir yarim barobar ko'paydi va 2605 nafar bo'ldi. Bundan shuni ko'rish mumkinki, universitetimizga talab yildan-yilga ortib bormoqda. O'tgan yili biz birinchi bakalavr qaldirg'ochlarimizni uchirma qildik, ulur 119 nafar edi. Bu yil bitiruvchilarimiz 522 nafar. Raqamlardagi tafavut yoshlarning sohaga qiziqishi yuqorligi, shuningdek, mamlakatimizda media sohasi mutaxassis-



lariga ehtiyoj muttasil oshib borayotganidan dalolat beradi.

Qamrov oshishi yangi pedagogik jamoani shakllantirishni taqozo etdi. Biz ilmiy salohiyatli, shu bilan birga, jurnalistik amaliyotda katta tajribaga ega bo'lgan, hayotning past-u balandini ko'rgan pedagoglar jamoasini shakllantirishga e'tibor qaratdik. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, umuman, hayotiy tajribaga ega insonlarni taklif qildik. Ular yoshlarimizni so'zning, axborotning qadri ni anglashga, soha mas'uliyatini his qilishga, Vatanimiz, ona tilimizni sevishga, o'zgarlar shaxsini hurmat qilishga o'rgatmoqda. O'z kasbining ustasi bo'lgan, haqiqat va adolat yo'lida xizmat qiladigan jurnalistlarni tarbiyalamoqda. Har bir talaba bilan individual ishlash asosiy talab.

Universitetimiz professor-o'qituvchilari soni ham talabalar soni singari o'sib bordi, ammo bu jarayonda ilmiy salohiyat ko'rsatkichlarimiz har yili pasayib borardi. Sababi, so'nggi 10-15 yilda jurnalistika ixtisosligi bo'yicha ilmiy daraja olgan o'qituvchilarimiz soni sanoqli edi. Quvonarlisi, ilmiy izlanish olib borayotgan professor-o'qituvchilarimiz ko'p. Shu sheb yil davomida 26 hamkasbimiz filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va 4 nafari filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasini yoqladi. Umumiy ilmiy salohiyat bugun 38 foizni tashkil etadi.

Universitetimizda yosh olimlarni rag'batlantirish, ilmiy salohiyatni doimiy rivojlantirish sari harakat katta. Doktoranturada 22 doktorant, 39 mustaqil tadqiqotchi ilmiy izlanish olib bormoqda.

SHART-SHAROIT – KUTILGAN NATIJA SARI QISQA YO'L

Sifatli o'quv jarayonini mustahkam moddiy-texnik bazasiz tashkil etib bo'lmaydi. To'g'ri, bino, texnika bilim bermaydi, biroq zarur shart-sharoit yaratadi. To'g'risini aytisak, universitet faoliyatini noldan tashkil etish oson kechgani yo'q. Avvalo, talabalar uchun zarur sharoit yaratishimiz talab etiladi. Yangi universitet uchun shahar markazi, tarixiy Qashqar mahallasidan bino tanlandi. Joylashuv haqiqatan qulay edi. Binoning markazda qad rostlashi talabalar jurnalistikaning qaynoq muhitida bo'lishi, jumladan, markaziy tahririyatlarda amaliyot o'tashiga qulaylik tug'dirardi.

"Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!". Bu mening, sizning, barchamizning oliy maqsadimiz va faoliyatimizdagi asosiy shiorimizdir. Buni amalga oshirish uchun bizda salohiyat, bilim, kuch va motivatsiya yetarli. Bu shior oliy maqsadlarimiz sari bizni birlashtiradi.

Amaldagi o'quv rejalar ancha soddalashtirilgan. Avval bitta semestrda 8, 9, hatto 12 tagacha fanni o'zlashtirish rejalashtirilgan bo'lsa, hozir 5 yoki 6 fanni o'zlashtirish belgilanmoqda. Fanlarni shakllantirish va semestrlarga taqsimlash talabalar so'rovlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

YUKSALISH PALLASI

Yoshlar ishlari agentligi tashkil etgan "Ibrat farzandlari" loyihasi xorijiy tillarni sodda va kreativ usulda, eng asosiysi, tekin o'rgatishni maqsad qilgan. Loyiha qisqa vaqtda YouTube platformasida qariyb 304 mingdan ortiq foydalanuvchini qamrab oldi. Unda e'lon qilingan darslarni 12 millionga yaqin kuzatuvchi ko'rib ulgurdi. Ushbu natija yoshlari o'rtasida chet tili o'rgatishni ommalashtirish nechog'iz zarurligi, bu yo'nalishda tekin onlayn darslarga talab yuqori ekanini ko'rsatdi.

Loyiha orqali mamlakatimizning chekka hududlaridagi iste'dodli yoshlar, moliyaviy tomondan imkoniyati cheklangan, lekin til o'rganishga ishtiyoqi baland o'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatish, savodxonligini oshirish ko'zda tutilgan. Uning doirasida xorijiy tillarni o'rganib, yuqori natijalarga erishgan yigit-qizlar chet elning nufuzli universitetlarini tamomlagan faollar bilan muloqot qiladi. Bundan tashqari, loyihadan ingliz tilini o'rganuvchi, IELTS sertifikatini olishni maqsad qilgan yoshlar o'qish, so'zlashish,

“IBRAT FARZANDLARI” TEKIN, QULAY VA SAMARALI USHBU LOYIHA DARSLARINI 12 MILLION KUZATUVCHI KO'RFDI

yoziq va tinglab tushunish ko'nikmasini mustahkamlash uchun foydalanishi mumkin.

Bo'stonliq tumanida "Ibrat Camp Top-100" loyihasining navbatdagi bosqichi o'tkazildi.

Bugungi yig'ilishimizdan maqsad yurtimizning turli hududidan kelgan iqtidorli, faol va xorijiy tillarga qiziqishi yuqori yoshlarni bir joyda to'plab, ular o'rtasida muloqot o'rnatishdan iborat. Shuningdek, xorij tajribasiga ega trener va spikerlarni jalb qilgan holda tinglovchilarning til bilish ko'nikmalarini yanada rivojlantirishdir, — deydi loyiha menejeri Risolat Maxsimova. — Bu jarayonda ular 10 dan ortiq xorijiy tillarni bepul puxta o'rganishlari mumkin. "Ibrat farzandlari" loyihasi xorijiy tillarni o'rgatish orqali yoshlarni dunyoning eng nufuzli universitetlariga yo'naltirishni ko'zda tutadi. Bu orqali o'zbekistonlik yoshlarning salohiyatini yanada yuksaltirish va sohaning xalqaro darajada yetakchilari bo'lishiga zamin yaratish maqsad qilingan.

Inson kapitalini rivojlantirish, sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash orqali yoshlarning iste'dod va qobiliyatini tarbiyalash, o'zi tanlagan sohada muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur ko'nikma va tajriba bilan qurolantirish mumkin. Inson kapitaliga sarmoya kiritilishi barqaror iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarga yo'l ochadi, mamlakatning rivoji va raqobatbardoshligini oshiradi.

Yoshlarning yetakchi universitetlarda bilim olishga intilishini qo'llab-quvvatlash mamlakatni bilim yaratish va innovatsiyalar sohasida birinchi o'ringa olib chiqadi. O'zbekiston yoshlari xalqaro darajada muvaffaqiyatga erishish uchun katta imkoniyatga ega. Ilm-fan va innovatsiyalarda birinchi qatorida bo'lishga salohiyatimiz yetadi.

Loyiha rahbari Rustam Qoriyevning aytishicha, professional murabbiylar 13 til bo'yicha 22 turdagi tizimli va alifboda boshlangan darslar majmuasini ishlab chiqmoqda. "Ibrat farzandlari" loyihasi yordamida turli tillar bo'yicha bilimlarni qisqa muddatda qulay joyda turib egallash mumkin. Loyiha

barcha uchun teng va tilni tekin o'rganish imkonini taqdim etmoqda.

Poytaxtda chet tillarni o'rganishga yoshlar uchun imkoniyat yetarli. Ammo chekka hududlarda-chi? Ularda bu borada ayrim muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ana shu muammolarga "Ibrat farzandlari" tom ma'noda yechim bo'ldi. Loyiha faollarining birinchi qadami Bo'stonliq tumanida "Ibrat oromgohi"ni tashkil qilish bo'ldi. Oromgohda shu kunga qadar bir yarim mingga yaqin yigit-qiz o'qitildi. Ularning aksariyati eng chekka hududlardandir. Hozir oromgohning yozgi mavsumidagi mashg'ulotlarga 250 ga yaqin yigit-qiz jalb etildi. Xorijiy tillarni tizimli o'rgangan, jahonning eng nufuzli universitetlarida, jumladan, Stenford, Garvard, Yel universitetlari va boshqa nufuzli OTMlarda o'qigan mentorlar yoshlarga dars bermoqda. Maqsad faqat til o'rgatish emas, chin ma'noda global liderlarni tayyorlashdir. Chunki juda ko'p sohalarda borki, o'z mutaxassisiga ega emas. Mashg'ulotlarda ishtirokchilarga to'la yoshlar qanday qilib xorijdagi nufuzli universitetga o'qishga kirsam bo'ladi, degan savolga ja-



vob topmoqda. Ularning ko'pi kelajakda o'zi o'ylagan marralarga, albatta, yetadi.

O'quv markazida bolalarga ingliz tilidan dars beraman. Ushbu oromgoh haqida do'stlarimdan eshitib keldim, — deydi Buxoro davlat universiteti bitiruvchisi Kamola Saidova. — Bu yerda eng ilg'or 100 talikka kiruvchi nufuzli universitetlarga hujjat topshirish va ularning

100 foizli grantini qo'lga kiritish tartibini o'rganayapman. Shunday grantlarni yutgan mentorlar qizqari, foydali darslar o'tyapti. Ular yordamida shu paytgacha qilgan xatolarimizni tushunib, bilimganlarimizni o'rganishga harakat qilyapmiz.

"Ibrat farzandlari" O'zbekistonda birinchilardan bo'lib o'zbek til grammatikasini onlayn o'rgatish tizimini hamda xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishni yo'lga qo'ygan loyiha. Uning doirasida "Ibrat Academy" ilovasi ishlab chiqildi. O'rganuvchilar unda nafaqat videodarslar ko'rishni, balki o'zining til bilish darajasini muntazam tekshirib borishi, bilimni mustahkamlaydigan sinov-mashqlarni bajarishi, so'z boyligini interaktiv usulda oshirishi mumkin.

Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

NAFIS SAN'AT JILOSI

“Oyni quchoqlash” ma’nosini anglatuvchi “ayqlash” so’zi qanotida qoraqalpoqning iftixoriga aylangan milliy ansambllar mana necha yilki, dunyo kezib, jahon ahlining-da diqqatini tortib keladi. Bunda eng muhimi — guruh dasturidagi raqslarning qiziq voqelik asosida yaratilishi va ta’sirchan ifoda etilishi. To’g’ri, raqs ijrochidan, avvalo, bu nafis san’atga cheksiz muhabbat, ulkan mahorat talab qiladi. Ammo birlamchi masala — g’oya.

IFTIXOR TIMSOLISAN, “Ayqlash”!

Shu yil o'zbek raqs san'ati afsonasi Mukarrama Turg'unbo'yeva tavalludining 110 yilligiga bag'ishlangan badiiy tadbirda "Ayqlash"ga bo'lgan muhabbatimiz, raqslaridagi nozik voqeelikka qiziqishimiz yanada ortdi. "Bahor" valsini boshlangan konsert dasturida o'zbekistonliklar "Gaytagi", boshqirdlarning "Проказницы", belaruslarning "Speu dubrau"dek jolibador raqslariga mahliyo bo'lib turganimizda, "Ayqlash" milliy folklor ansambllarining "Qiz-yigitlar sayli" raqsiga navbat berildi. O'shanda raqs namoyishidan so'ng "Ayqlash" bilan yaqindan tanishishni dilga tukkandik.

Jonli yoxud qamchili ko'pri

"Qiz-yigitlar sayli"dan anglaganimiz shuki, o'z davriga bo'lgan bayramga (tantana, to'y, deiyish mumkin) kelayotgan suluq qizlar katta ariqcha dush keladi. Suvdan o'ta olmay o'ylanib turgan bo'lsa qizlarga yordam berish uchun go'yo avvalroq kelib, ularni kutib turgan ovulning zabardast yigitlari chaqqonlik bilan harakatga kirishadi. Qahramonlar qizlarni avaylab, oyoqlarini suvga tegizmay ariqdan olib o'tadi. Yigitlar ularni ko'tarib olib o'tmadi, balki qo'lardagi qamchilar yordamida ko'pri hosil qildi. Ikki qator bo'lib saf torgan yigitlar qamchilarini shunday jipsildilarki, qizlar bu mustahkam ko'pri ustidan bamaylaxotir, xuddi chinakam ko'prika yurgandek o'tdilar.

Yana bir diqqatga sazovor ko'rinish — yigitlar aylana hosil qilgan qamchilarni yechib, undan bo'yraga o'xshash bir narsa to'qidilar. Ustiga bir yigitni o'tqazib, "yigit bo'lsang, chinakam er yigit bo'l, mard bo'l", degan ma'noda uni ikki-uch bor osmonga qarab otdilar. Har ikkala murakkab holatda ham yigitlar qizlar oldida o'zlarining jo'mard, botir ekanini, aslida ham yigit kishi shunday bo'lishi lozimligini ko'rsatishga urindi. Qizlarning ham ularga hurmat oshib, quvnoq raqslari, iliq tabassumlari bilan yigitlarga esh bo'ldi.

Sahnaning o'zida, juda qisqa muddatda bunday harakatlarni amalga oshirish raqqos va raqqosalardan juda katta kuch, professionallik va dovyuraklik talab qiladi.

— Ushbu raqs voqeelarni bir yilcha xayolda pishitib yurganman, — deydi ansambllar bosh baletmeysteri, O'zbekiston xalq artisti Po'lat Madreymov. — Chunki raqsdagi detallar tasvirini, har bir xatti-harakatni shakllantirish, ayniqsa, ko'pri hosil qilish jarayonini sahnada qanday ko'rsatib berish bilan bog'liq masalalar ko'p vaqt talab qiladi. Qoraqalpoq yoshlarining quvnoq sayillari, yigit-qizlarning sof sevgilarini aks ettiradigan raqslarimiz ko'p.

"Ayqlash"ning birorta raqsini shunchaki tomosha qilmasiz. Raqs avvalida boshlangan voqelik namoyish so'ngiga kelib, aniq bir yakun bera olishi bilan ahamiyatli. Masalan, "Gul yuzli"da latofatli qizlarning yuzi gul'unchaga qiyoslanayotgani aniq-tiniq anglashilsa, "Shashi baulu qiz" ("Sochi bog'langan qiz") raqsida shodiyonaga yig'ilgan yigit-qizlarning bayramona kayfiyatini ularning jolibador harakatida aks etadi. Qo'biy chalganlarida qizlarning iftatu nazokatini yoqimli kuyga uyg'unlashsa, g'ururli yigitlarning mardligi, jasurligi keskin-keskin harakatlarda ko'zga tashlanadi. Qoraqalpoq qizlarining o'ziga xos fazilatleri, ichki ruhiyatini nafis harakatlarda aks ettirgan "Qoraqalpoq qizlari" ham ansambllar dasturida o'ziga xos ahamiyatga ega. "Sho'x jigetter" raqs esa mag'rur qizlar haqida. Hazilga boy bu raqs go'yasi ustida ham baletmeyster uzoq yillar ishlagan. Yigitlar mag'rur qizning ko'nglini olish g'oyat qiyin ekanini tan olishi bilan nihoyalangan ushbu raqs ham ansambllar repertuarida alohida o'rin tutadi.

"Chag'alaylar", "Chavandoz" raqslarida esa raqqos yigitlarning jo'shqin harakatlari kishini o'z-o'zidan raqsqa chorlaydi.

Umuman olganda, Po'lat Madreymov asarlarini libretto shaklida jonlantirishga intilgani bois, tomoshabin voqelik mazmunini



anglab olish uchun butun diqqatini raqsqa beradi. Bu esa "Ayqlash"ning o'ziga xos maktab yaratishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Milliy madaniyat va san'atga sadoqat namunasi

— Ansambllar ijodiy jamoasi ko'p asrlilik boy san'atimizni targ'ib etib qolmay, xalqimizning ma'naviy dunyosini yanada boyitish, yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda munosib hissa qo'shib kelayotir, — deydi Qoraqalpoqiston madaniyat vaziri Qalbay Turdiyev. — Ushbu ansambllar davlat tadbirlarining konsert dasturlari, respublika miqyosida o'tkazib kelinayotgan umumxalq bayramlari, festivallari va boshqa madaniy tadbirlarda ham faol ishtirok etmoqda.

Ansambllar jamoasi Rossiya, Ozarbayjon, Moldova, Ukraina, Belarus, Gruziya, Armaniston, Janubiy Koreya, Xitoy singari qator davlatlarda gastrol safarlarida va folklor festivallarida qatnashib, xalqaro madaniy va do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Milliy madaniyatimizning ajralmas qismi sanalagan baxshichilik, jirovchilik, qo'shiqchilik bilan bir qatorda qoraqalpoq milliy xoreografiya san'ati ham betakror harakatlari bilan qalblardan joy olishi sir emas.

— Qoraqalpoq milliy xoreografiya san'ati ancha ilgari shakllangan bo'lib, milliy raqslarimiz bo'lgan "Ayqlash", "Qiz uzatuv", "Beshik to'y" va hokazolarda hozirgi zamonaviy raqs san'ati ko'rinishlari ifodalanganini ko'ramiz, — deydi Qalbay Turdiyev. — Hozirgi zamonaviy raqsimiz XX asrning 20-40-yillarida shakllana boshlagan. Har bir xalq o'ziga xos milliy san'atini dunyoga tanitar ekan, biz ham

faxr bilan aytamizki, "Ayqlash" — qoraqalpoq milliy raqslarini jahon sahnasida ulug'lab kelayotgan milliy folklor ansambllaridir.

1956-yili "Qo'shiq va raqs" ansambli nomi bilan tashkil qilingan jamoa 1966-yili "Ayqlash" qoraqalpoq qo'shiq va raqs ansambli, 1976-yili "Ayqlash" qoraqalpoq milliy raqs ansambli, 1982-yili "Ayqlash" qoraqalpoq davlat qo'shiq va raqs ansambli, 2006-yili "Ayqlash juldizlari" qoraqalpoq folklor ansambli, 2019-yildan esa "Ayqlash" qoraqalpoq davlat milliy folklor ansambli sifatida qayta tashkil qilindi.

— "Ayqlash"ning bugungi darajaga yetishi uchun ko'plab qobiliyat egalari bor kuch-g'ayratini sarfladi. Ayniqsa, bosh baletmeyster Po'lat Madreymov, O'zbekiston xalq artisti Bayram Murodov, Bayram Matchonov, Otajon Xudoyshukurov, Gulparshin Sirmibetova, Tamara Doshumovaning ismlarini hurmat bilan tilga olish joiz, — deydi "Ayqlash" qoraqalpoq davlat milliy folklor ansambli direktori Begis Temirboev. — O'zbekiston xalq artisti, "Ayqlash"da uzoq yillardan buyon bosh baletmeysterlik qilayotgan Po'lat Madreymov ishga kelgan dastlabki kunlardan qonun hayoti tubdan o'zgardi, repertuari har tomonlama boyildi. U sahnalashtirgan "Chavandozlar", "Orol yigitlari", "Qoraqalpoqcha lirik raqs", "Jilva", "Ilmi sulton", "Dali yigit", "Bir piyola choy" va boshqa ko'plab raqs qoraqalpoq xoreografiyasining klassikasiga aylandi. Bugungi kunga kelib, ansambllar repertuari yuzga yaqin turli janrdagi raqs va kompozitsiyalarga ega.

2021-yil "Ayqlash" jamoasi uchun muvaffaqiyatlarga boy bo'ldi. Shu yili ansambllar Boshqirdistonda bo'lib o'tgan VI CIOFF jahon folkloridasturida, Xiva shahrida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalar chorrahasida" xalqaro madaniy forumi ochilish va yopilish marosimlarida, Nukusdagi II xalqaro baxshichilik san'ati festivalida munosib ishtirok etdi. Shuningdek, "Anqara xalqaro haftaligi" va Anqara shahri Turkiya poytaxtiga aylantirilganining 98 yilligiga bag'ishlangan xalqaro madaniyat va san'at, Hindistonning Raypur shahrida bo'lib o'tgan XII xalqaro milliy raqs festivallarida yuksak o'lqishlarga sazovor bo'ldi.

Vengriyada Jahon kongressi hamda folklor festivallari va xalq amaliy san'ati tashkilotlari xalqaro kengashi tashkil etilganining 50 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarda ishtirok etib, ushbu kongress a'zolariga qabul qilinganini esa ansambllar hayotida muhim tarixiy voqelik deiyish mumkin.

Joriy yil iyul oyida Turkiyaning Bursa shahrida o'tkazilgan xalqaro folklor raqs ansambllari tanlovida ishtirok etgan jamoa 20 davlat vakillari orasida ikkinchi o'ranga loyiq ko'rdi.

Shuningdek, "Ayqlash"ning Shimoliy Makedoniyada bo'lib o'tgan "SARAJ FEST — 2023" hamda TURKSOY tashkiloti tomonidan Ozarbayjonda san'at beshigi sanalagan Shusha shahrida o'tkazilgan "Xaribulbul" xalqaro folklor festivallaridagi ishtiroki ham o'ziga xos bo'ldi. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Vengriya, Moldova, Rossiya, Turkiya singari ko'plab davlatlarning folklor jamoalari ishtirok etgan tadbirida Ozarbayjon madaniyat vaziri Odil Karimli ham baxshijirovlarning chiqishini katta qiziqish bilan tomosha qilgani, kelgusida ijodiy hamkorlik qilish bo'yicha takliflar bildirgani ansambllar jamoasini yanada ruhlantirganiga shubha yo'q.

"Ayqlash" hali ko'p yillar jahon san'at ahli e'tiboridan tushmay, ming-minglab san'atsevar qoraqalpoq farqlaridagi ulkan mahorat maktabi bo'lib xizmat qiladi. Zero, uni milliylik yetildir, tobladi. U millatning tinik zo'g'usi, milliylikning mevasidir.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

BOQIY MEROS



"Chustiy domlarning to'ng'ich o'g'li Muzafarxon Xo'jayev bir kuni haddi siqqan 4-5 hamkasbini uy buzish hashariga taklif qildi. Ertasiga choshgohda do'stlar jam bo'lib, uy buzishga tushib ketdi. Stolda o'tirib xomiqib qolgan qalamkashlar 4-5 g'ishtini ko'chiraman deb, tob tashlab yubordik. Qo'llarimiz qavarib, qontalash bo'lib ketdi.

— Bo'ldi, yetar, — dedi Muzafarxon aka, — qolganini mardkor bolalarga qo'yib be-raqalaylik. Undan ko'ra, dadam behol, barchamiz borib, u kishidan hol so'rasak, shu ham katta savob.

Ozroq bozorlik qilib, domlarning xonadoniga yo'l oldik. Borsak, uylarida mehmon — Qo'qon o'l'kashunoslik muzeyi direktori Ibo-dulla Rahmatullayev bor ekan. U kishi ham domlarni yo'qlab kelibdi.

— Bular o'g'limizning o'rtoqlari, eski uyimizning yog'ochlarini ko'chirib kelishyapti, hashar qilgan, — dedi Chustiy domla bizni tanishtirib.

— Eh-ha, bular uybuzarlar deng hali, — dedi mehmon g'oyat tagdor qilib.

— Bizlar rosmana "shag'al to'kdik" (sharaqlab kulib yubordik).

— Endi shu payrovdan ketar ekanmiz-da, — dedilar Chustiy domla.

— Hasharchilarning ham ko'ngillari yoziladi bahonada.

— Shu deyman, domla, Qo'qondan turib eshitib qoldim: Chustiy domlarning uylari buzilib, nima qilishni bilmay hovliqib yuribdilar, deb.

— Hovliqilish oson emas ekan, Ibo-dulaxon uka, material tanqis — topolmay, kasal bo'lib qoldim, u yog'ini so'rasangiz, to nevropatoloqkacha (potolok — ruscha: shift) chiqdim-da o'ziyam. Rayispolkomdagi: "Boramiz, yordam beramiz", deiyshgandi, mana, haligacha hech kim yo'q.

— Unday bo'lsa, yuqoridagilarni poylab, ertalab bo'sag'ada rosa o'tirgan bo'lsangiz kerak?

Chustiy domla bir yog'i keksalik, bir yog'i betoblik sabab charchayotgani ancha bilini b qolgandi. Buni vaqtda anglagan mehmon bugungi gurrungga chek qo'yish uchun askiyani qisqarot qildi:

— Chustiy domla, hovliqlishdan ancha chiqib qolibsiz, rangingizni qarang — ko'rganlar: "Bu choldebor bo'lib qolibdi", deydi.

MUQADDAS OLAMNING SIRLI QO'SHIG'I

YOXUD XALQIMIZNING LABIDAN KULGU ARIMASIN

Askiyaning bitta o'zgarma qonuni bor: "Gap kelganda, otangni ayama", degan. Bunda ham shunday bo'ldi. Chustiy domla o'zlarini yo'qotib, ranglari oqarib ketdi. Mehmon asta ishora qilib, bizga ruxsat berdi".

Yuqoridagi askiyaga ulanib ketgan voqeani 2015-yil 9-mart kuni mohir tarjimon Amir Fayzulla tilidan yozib olgan edim. Folklor asarlari, jumladan, askiyaning asrlar osha yashashining siri uning ijodkorlari ham, ijoddoshlari, ya'ni tinglovchilar, tomoshabinlar ham quyumaquloq — xotirasi bir ko'rgan, bir eshitganini unutmaydigan darajada kuchli odamlar edi. Amir Fayzulla bundan qariyb yarim asr avval badiha tarzida aylangan askiyani bu qadar aniq takrorlari ham shundan. Demakki, folklor, uning barcha namunalarini, jumladan, askiya, qiziqchilik ona tilining tuganmas boyliklarini yuzaga chiqarib, tobora rivojlanish, boyitish, shuningdek, millat, ayniqsa, yosh naslning zehniyatini o'stirish, fahmini charxlash yo'lida butun ijodiy kuchini sarflaydi.

Bejiz emaski, davlatimiz rahbari mam-lakatimizda milliy qadriyatlarimizni, shu jumladan, milliy askiya va qiziqchilik san'atini asrab-avaylash, keng targ'ib etish va kelgusi avlod uchun nomoddiy meros sifatida yetkazish maqsadida alohida qaror qabul qildi. Endilikda Marg'ilon shahrida Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi respublika askiya va qiziqchilik markazining tashkil etilishi yuqoridagi maqsadlariga xizmat qilajagi aniq. Zero, bu Markaz ustoz-shogird an'alarini rivojlantirish, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash, madaniyat va ta'lim muassasalarida askiya va qiziqchilik san'ati to'garaklarini

tashkil etish, askiya va qiziqchilik san'atini saqlash va targ'ib etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, ayni yo'nalishdagi ijodiy va ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Askiyachilar va qiziqchilar ommaviy bayramlar va madaniy tadbirlarda faol ishtirok etishini ta'minlaydi, ularning mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda gastrol faoliyatini amalga oshirish, festival, ko'rik-tanlov, ijodiy kechalar, askiya va qiziqchilik tomoshalarini tashkil etishga ko'maklashadi. Askia va qiziqchilik san'atining payrov, qofiya, bahribayt, afsona, radif, aytishuv, rabbiya kabi noyob shakllarini asrash va targ'ib etish, sahnaviy syujetlarini rivojlantirish hamda iste'dodli so'z ustalarning ijod fondini va maxsus adabiyotlarni yaratish jarayonida esa bu san'atlar kamoloti ta'minlanadi.

Umuman olganda, endilikda askiya va qiziqchilik san'ati ham, unga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ham yuqori bosqichga ko'tariladi. Filologiya fanlari doktori, professor Komiljon Imomov kulgu sehri kuch-qudratga ega, deb anglash qadimgi mifologiya e'itodlar hamda Navro'z bilan bog'liq holda to'liq an'analashgani, tadqiqotchilar marosimlar tarkibidagi kulgu xursandchilik va shodlik ato etuvchi sirli kulgular — sehri tashigan, mag'lik kulgu nikoh, bola tug'ilishi yo'ki Navro'z kunlarida yuz bergan yokin-kulgularda ko'ng'ixushliklarda amal qilganini, kishilarga hayot baxsh etuvchi joduga molik bo'lganini alohida ta'kidlaganini eslatadi. U mag'lik kulgu keyinchalik sehri ertaklarga ko'chganini bildirib, misollar keltiradi. Ushbu ilmiy axborotdan ibrat olib, askiyani mag'lik kulgu kesimida o'rganish uning fenomenini teran, har taraflama tahlil va talqin qilishga imkon yaratadi, degan to'xtatma kelamiz. Zero,

odamzod serpushtligini kulgu magiyasi panohida saqlash, amalga oshirish askiyaning yuksak vazifasini (missiyasini) bag'laygan. Askiyadagi, ulug' adib Abdulla Qahhor iborasini qo'llab aytak, shabada chiqarish usuli insonning nikoh tuzib, oila qurib, farzand ko'rib, zot-zurriyot qoldirishdek eng oliy burchini ulug'lovchi majozdir.

Askiya juda yuksak va murakkab san'at. Askiyachilar mavridi topilganda, laqablarni ham "o'ynatadilar". Ammo bu badiiy usulni ilg'ay olmaydiganlar ham topiladi. Buni bolalar folklori bo'yicha yozilgan dissertatsiyaning dastlabki muhokamasida qatnashganimda, guvoh bo'ldimki, bir o'rinda nima uchundir laqab zamiridagi estetik mohiyatdan tamomila uzoqlashib, tekis yerda qoqilgan muallif shunday deb yozgan — sababini hech tushunib bo'lmaydi: "Kattalar orasida azaldan bir-biriga laqab qo'yib, laqabozlik qilish odatiy illat (ta'kid bizniki — M.Q.) darajasida saqlanib kelayotir. Buni esa tabiatga kuchli taqlidchilik mayli xos bo'lgan bolalar ham o'zlashtirib olgan. Ular orasida laqabozlik bo'yicha darajasiga ko'tarilgan. Bunda biror-bir kamchiligi sabab laqab o'tirtgan shaxsni tahqirlash (ta'kid bizniki — M.Q.) ko'zda tutiladi". Jaboban, biz ustoz Abdulla Qahhor 1963-yilda yozgan shu so'zlarni eslab, o'qib berdik: "Kishilarga laqab qo'yish mumkin emas" degan da'vo jaholatdan va demagogiyadan boshqa narsa emas. Askiyada laqab kishini haqorat qilmaydi, balki so'z musobagaqasida bir vosita bo'ldi, xolos. Sahnada o'g'ri, poraxor, ayiq, it, eshak qiyofasida chiqadigan artistlar haqorat ostida qoldi, chegan gap kimning xayoliga kelishi mumkin".

Bu kabi dono o'g'itarni unutmay, ijodiy foydalanishimiz xayri bo'ldi.

Etnograflar tomonidan to'plangan ma'lumotlar, dalillar kundalik turmushimiz, marosimlarimiz, odatlarimiz tubidagi tasavvurlarning asosiy qismi hosildorlik, serfazzandlik muros-maqsadi sarchashmasidan boshlanib, asrlar, eralar osha yashab kelayotganini tasdiqlaydi. O'lib-tiriluvchi tabiat haqidagi tasavvurlar zaminidan unib chiqqan marosimlarga puxta hozirlik ko'riilib, maxsus bezaklar tayyorlangan. Ma'lumki, o'tgan uzoq zamonlardan to hozirgi kunlarga ham Farg'ona vodiysi qizlari ko'klamda tol novdalarga sariq gullari yarashib tizilganida, ularning po'stni shoxlaridan ustidagi gullari bilan birgalikda shilib olib, kokillariga topopuk qilib taqadilar, qoshlarga o'sma tortib yasanadilar, halinchak uchadilar. Bu o'lib-tirilgan tabiatni e'zozlashdir. Eru xotin, yoshu qari chakkasiga gul, rayhon, lola taqishi ham shuning dalolati.

Prezidentimizning "Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi muhim tarixiy qarori mamlakatimizda askiya va qiziqchilikni yanada rivojlantirish bilan birgalikda, xalqimizning bu noyob nomoddiy merosini har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan "Tabassum" xalqaro kulgi festivali sahnasida jahon miqyosida targ'ib qilish uchun ham keng yo'l ochdi.

Xalqimizning labidan kulgu arimasini! Kulgu ijodkorligimiz jahonda tinchlikni, do'stlikni, hosildorlikni, serfazzandlikni, oilani, ona tilimizni, go'zal Vatanimizni ulug'lab, badiin ommaviy madaniyatni uyatga qoldirib, odamiylik e'zozlanishiga bemin-nat kamarbasta bo'laversin!

Muhammadali QO'SHMOQOV,
filologiya fanlari nomzodi

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Qabulxon: (71) 233-56-33

Devonxon va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-846.
43690 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Munojat Mo'minova
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 01-20